


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING DAVLAT TILINI
RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI**

Nizomiddin Mahmudov

Zarif soʻz ziyorati



**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UDK: 808.5
KBK: 83.3(5O‘zb)
M 63

Mahmudov Nizomiddin.

Zarif so‘z ziyorati [Matn]: to‘plam / N. Mahmudov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 134 b.

Qo‘lingizdagi ushbu kitobda taniqli tilshunos olim, professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy, ilmiy-ommabop asarlaridagi o‘zbek tilining betakror mazmun-mohiyati, so‘zning badiiy ifoda imkonlari, nutq madaniyati sirlari, til ilmi, ta’limi va idroki masalalari bilan bog‘liq quyma fikrlari jamlangan.

Kitob filologiya ilmi mutaxassislari, til tilsimi va so‘zning sehr-u sinoatiga befarq bo‘lmagan barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Ma’rufjon Yo‘ldoshev

filologiya fanlari doktori, professor

Dilrabo Andaniyozova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan
chop etildi.

ISBN 978-9910-06-754-9

© Mahmudov N., 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

NAZARKARDA OLIM

Odamzod eng qadimgi davrlardan beri o'rganish va o'rgatishni yuksak fazilat deb biladi. Dunyo tamaddunining asosida ham ayni shu o'rganish va o'rgatishning hosilasi yotadi. Qadim zamonlardan beri insonlar boshqalar ko'ra olmagan haqiqatlarni ko'rgan, anglagan va sharhlagan zotlarni e'zozlab kelgan. Har bir xalq ana shunday insonlarni o'z tilidagi eng mo'tabar so'zlar bilan tilga oladi. O'zbeklar eng qadimgi davrlardan buyon *bilga, olim, oqil, fozil, donishmand, dono, bilimdon, mutafakkir* kabi so'zlar bilan bu sharaflı maqom egalariga o'z ehtiromini ko'rsatib keladi. Rivojlangan mamlakatlar va madaniyatlar taraqqiyoti jarayoniga nazar tashlasak, uning zahirida ilm ahlining mashaqqatli mehnati yotganligini ko'rishimiz mumkin. Shunga asosan aytish mumkinki, bir xalqning madaniyatini uning olimlarga bo'lgan munosabatiga qarab belgilash mumkin. Olimlar ilmiga, fikriga, maslahatiga ehtiyoj sezadigan jamiyatning umri poyidor bo'ladi.

Muqaddas dinimizda ham olimlarga yuksak ehtirom ko'rsatish ta'kidlanadi. Jumladan, Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda bunday deyiladi: "Abu Dardo (r.a.): "Rasululloh alayhissalom bunday deganlarini eshitdim: "Kim ilm istab bir yo'ldan yursa, Alloh uni jannat yo'llaridan biriga yo'llab qo'yadi. Farishtalar ilm tolibi uchun qanotlarini pasaytiradilar. Albatta, olim haqiga osmonlar-u yerdagilar, hattoki, suv ostidagi baliqlar ham istig'for aytadilar. Olimning obiddan afzalligi badr kechasidagi to'lin oyning boshqa yulduzlardan afzalligi kabidir. Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor va dirhamni meros qoldirmadilar. Balki ilmni meros qoldirdilar. Kim uni olsa, (merosdan) to'liq nasibasini olibdi".

Mamlakatimizda olimlarga ehtirom ko'p asrlik qadriyat hisoblanadi. Temuriylar davrida ham ahli ilmga hurmat shu qadar yuksak bo'lganki, hatto Sohibqiron Amir Temur har bir ishni olimlar bilan bamaslahat amalga oshirgan va davlatining asosini ilm va irfon bilan muzayyan qilgan. Shayx Zayniddin Faxuriy, Shamsiddin Havofiy va Sayyid Baraka kabi oriflar suhbatidan muntazam bahramand bo'lib turgan. Uning o'zi zabt etgan boshqa yurtlardagi e'tiborli olimlarni Samarqandga olib kelishdan murodi ham mamlakat poytaxtini fozil shaharga aylantirish bo'lganligi barchaga ayon.

Buyuk so'z sarvari Alisher Navoiy ham ilm ahlini ulug'lab, juda katta hurmat bilan shunday misralar yozib qoldirgan:

*Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.*

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakat va jamiyatning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi". So'nggi yillarda mamlakatimizda ona tilimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarida emin-erkin qo'llanishi uchun barcha huquqiy asoslar yaratildi va bu boradagi ishlar muntazam davom etmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida ham yirik tadqiqotlar, ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligining kamoloti nafaqat turkologiyada, balki dunyo tilshunosligida ham e'tirof etilayotganligi bejiz emas. Chunki bu fanga xolisona xizmat qilayotgan zabardast tilshunoslar, ularning ortidan ergashayotgan tolibi ilmlarning ishtiyoqi bunday deyishga asos bo'la oladi.

Nazarkarda olim Nizomiddin Mahmudov bugungi o'zbek tilshunosligining yirik vakili desak, yanglishmaymiz. Olim o'zbek tilini rivojlantirish hamda yanada takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarda bevosita o'zining xizmatlari, jiddiy maqolalari bilan yetakchilik qilib kelayotgani fan ahliga yaxshi ma'lum. N.Mahmudovning nashr etgan asarlari bu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar uchun qimmatli manbalar sifatida doim e'tirof etiladi. Olimning ilmiy-ijodiy faoliyatida nazariy tilshunoslik, uni o'qitish metodikasi, publitsistika, telejurnalistika, tarjimonlik, muharrirlik singari qirralar alohida ajralib turadi. Olimning hammualliflikda chiqargan "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" (1992), "Til va madaniyat" (1992), "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" (1995) kitoblari va o'zining "O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya" (1984) monografiyasi hamda "Til tilsimi tadqiqi" (2017) risolalarida o'zbek tilshunosligining muhim nazariy va amaliy masalalari dunyodagi eng taraqqiy topgan tilshunoslik maktablarining mezon va an'analari ruhida tahlil qilingan.

Professor Nizomiddin Mahmudovni mamlakatimiz sarhadlaridan uzoqlarda ham ko'pchilik biladi. Jumladan, Turkiyada tilshunos Muhiddin Gumush "Professor Nizomiddin Mahmudov" degan maqolasini e'lon qilib, o'zbek olimining xalqaro e'tiborini e'tirof etadi. Professor Ridvon O'zturk "Turkiyadan tashqaridagi turkolog tilshunoslar" (2019) ensiklopediyasi uchun yozgan maqolasida ham olimning ilmiga yuksak baho beradi. Shuningdek, Indiana universiteti (AQSH) ilmiy ishlar to'plamining 1993-yil 156-sonida N.Mahmudovning o'zbek tili mazmuniy sintaksisiga oid maqolasining ingliz tilida bosilishi ham bu e'tirofning bejiz emasligini namoyon qiladi.

Nizomiddin Mahmudov badiiy asar tili haqida yozganda go'zal bir badiiy asar o'qigandek huzur qilasiz. Musiqa

haqidagi ilmiy maqolasida bir bastakorning musiqa haqidagi falsafiy fikrlarini tuysangiz, kino asarini mahoratli rejissyordek tahlil qilishidan hayratga tushasiz. Olimning har bir maqolasi ohorli soʻz va fikrlar bilan boshlanadi. Mazkur boshlanma jozibasiga berilib, maqolani qanday oʻqib tugatganingizni bilmay qolasiz. Eng murakkab til hodisalarini ham olim behad taʼsirchan va goʻzal uslub bilan bayon qiladi. Darhaqiqat, tildan oʻrinli foydalanish ijodkorgagina emas, tilshunos, adabiyotshunosga ham juda zarur. Ijodkordan shirali, sayqallangan til talab qilayotgan, muayyan ijodkorning soʻz qoʻllash mahoratini tadqiq qilayotgan olim yoki tadqiqotchining oʻzida soʻz sezgisi, soʻzni his qilish malakasi yetilgan boʻlishi lozim.

“Badiiy asar tilidagi noʻnoqlikni hech narsa – koʻtarilgan mavzuning jamiyat uchun dolzarbligi ham, muallifning yoshi yoki mavqei ham mutlaqo berkitolmaydi”, – deydi olim “Har soʻzning oʻz oʻmi bor” maqolasida. Nizomiddin Mahmudovning koʻplab ijodkorlar asarlarining til xususiyatlari, ularning soʻz qoʻllash mahorati haqidagi turkum maqolalari borki, ularda olimning soʻzga oshuftaligi, “soʻzning ichini ham, tashini ham koʻra olish”dek sinchiligi namoyon boʻladi. Xususan, “Soʻzni qayliq saylagandek sevib sayla”, (1984), “Soʻz masʼuliyati” (1985), “Navqironlar soʻzi navqiron boʻlsin” (1985), “Har bir soʻz bersin sado” (1987), “Qalbimning bayrogʻidir soʻz” (1990), “Soʻz ziyorati” (1992), “Soʻz va soz” (1997) singari oʻnlab maqolalari, “Soʻz estetikasi” (1981), “Oʻzimiz va soʻzimiz” (1997), “Til” (1998), “Maʼrifat manzillari” (1999), “Tilimizning tilla sandigʻi” (2015) kabi asarlari til va tafakkur, madaniy nutq tarbiyasi, maʼnaviyat, taʼlim-tarbiya va soʻz estetikasi masalalarining turli jihatlarini yoritishga, tahlil qilishga qaratilgan.

Nizomiddin Mahmudovning mazkur asarlarida qayd etilgan soʻz sinoati, nutq madaniyati, til ilmi, taʼlimi va idroki

haqidagi juda ko'p jumlarlar o'zining teran mazmuni va go'zal shakli bilan shu darajada uyg'unlik hosil qilganki, ular o'quvchi yodida hikmatli so'zlar kabi naqshlanib qoladi. Ustoz tilshunos uslubiga xos ushbu fazilat bizni uning quyma fikrlarini jamlab, alohida to'plam holida nashr qilishga undadi.

Ushbu kitobni shakllantirishda N.Mahmudov qalamiga mansub 40 ga yaqin manbaga murojaat qildik. Til haqida ilmiy, ilmiy-ommabop mavzulardagi turli maqola va risolalaridagi tagiga chizib o'qiladigan zarif so'z va fikrlarni yig'ib, bir hikmat gulshani hosil qilishni maqsad qildik. Zero, tilga muhabbati baland, so'z sehriga oshufta inson borki, Nizomiddin Mahmudovning bu boradagi fikrlariga befarq bo'lmaydi. Kitobga yig'ilgan hikmatafzo fikrlar olimning so'z gulshanidan terilgan misoli bir guldasta. Asarning tamomini o'qishni istagan ixlosmandlar esa uni ushbu kitobdagi adabiyotlar ro'yxati orqali topishlari mumkin. Iqtiboslar kitobdan olingan bo'lsa, maqola nomidan keyin kitob nomi ham berildi. (Masalan: "Avlod-u ajdodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandig'i)

Kelgusida ushbu kitob yana to'ldiriladi, takomillashtiriladi. Chunki serg'ayrat olimning har bir maqolasida til, til ilmi va so'z bilan bog'liq, albatta, hech kim aytmagan ohorli so'zlar, favqulbasha fikrlar bo'lishi tayin.

Tuzuvchilardan

SO‘ZGA SO‘Z BERIB

Til olimi Nizomiddin Mahmudov bilan osh-qatiqligimiz bor desam, lof bo‘lar-u, ammo ko‘rgan-ko‘rishgan joyimizda ming yillik qadrdon kabi o‘zaro bir yaqinlik tuyushimiz (ko‘ngil sezadi-da) bor gap. Har ishda saranjom-sarishta, mingan otining uzangisigacha yarqirab turadigan bohafsala odamlarga azaldan ixlosim baland. Darvoqe, til ilmidek serdiqqat sohada busiz biror nimaga erishib bo‘larkanmi?!

U emas, bu emas, ikkovimizni ruhan birodarlashtirgan rishta So‘zga muhabbat bo‘lsa kerak; u kishining so‘z nazariyoti-yu kaminaning so‘z amaliyoti bilan mashg‘ulligi elga ma‘lum. Yaqin ellik yildan beri tengdosh-u safdosh sifatida bu puxta qalamdan chiqqan katta-kichik asarlarni baqadri imkon kuzatib kelaman va o‘zimcha nazariyotchiga do‘nib baholar bo‘lsam, Nizomiddin Mahmudovdek uslubi pishiq, matn tuzishga mohir boshqa tilshunosni bilmayman. Bu gap qutlug‘ sana bahona yoki “o‘ziga o‘zi javob beradigan” bir kitobga ikki og‘iz so‘zboshi bitish sharafiga erishgan shirinsuxan qalamkashning emas, so‘z mehnatida sochi oqargan kishining chin e‘tirofidir!

Qo‘limizdagi ixchamgina to‘plam ana shu ta‘riflarimizga bemalol isbot bo‘la oladi. Unda muhtaram olimimizning qariyb ellik yillik ilmiy-adabiy faoliyatiga doir, tuzuvchilar ta‘kidlaganidek, tagiga chizib o‘qiladigan toza fikrlar, kitob-u maqolalarning qaymog‘i jamlangan. Barchasi til haqida, so‘z haqida, millat ma‘rifati haqida. Barchasi “so‘zga sinchilik saodati” mahsullari. To‘plamdagi ba‘zi fikr-mulohazalar bir-birini to‘ldirsa to‘ldirar, ammo aynan bir xilini qidirib topolmaysizki, bunda puxtakorlikni ustozlaridan o‘rgangan tuzuvchi shogirdlarning ixlos va hafsala bilan qilgan xizmatiga balli demay ilojingiz yo‘q.


Qutlug' yoshga yetgan ijodkorning to'yiga tanlanma asarlari nashrini tuhfa etish taomilga aylangan. Biroq dabdaba bilan nashrdan chiqqan tom-tom kitoblar ko'pincha javonlarda chang bosib yotadi. "Zarif so'z ziyorati"ni atoqli olimimiz Nizomiddin Mahmudovning saylanma fikrlari – saylanma asarlari desak, u kishini aslo kamsitgan bo'lmaymiz. Qani edi, boshqa ilm ahllarining ham shunchalik toza, quyma fikrlarga boy kitoblari chiqib tursa!

Kamina bir muxlis sifatida so'zga oshno, so'z mo'jizasiga tashna ko'ngillar ushbu to'plamni o'qib ko'rgach, uni bir chekkaga tashlab qo'ymasligiga ishongim keladi.

Erkin A'ZAM

O'zbekiston xalq yozuvchisi

*Fil — bemisl va
muhtasham sinoat*



YIL2836

YIL2836

Tilning mohiyati, vazifasi ko‘pincha benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko‘plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne‘mat, u odam degan mavjudotni shakllantirgan, qavmlar o‘laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o‘zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e‘tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e‘tirofidir.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Agar til faqat aloqa vositasi bo‘lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo‘lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyyatga ko‘rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Ma‘rifat manzillari

Necha yillardirki, odam bolasi til degan mo‘tabar sinoatning mag‘zini chaqish payida ming bitta ko‘chaga kirib chiqadi, izlaydi, izlanadi, ammo hali hamon bu tilsimot bag‘riga gizlangan mohiyat odam aqliga bo‘y bermaydi. Eng

qadimgi davrlardan boshlab dunyoning turli puchmoqlarida til va unga daxldor hodisalarni turli darajalarda o'rganishga harakat qilingan, ammo qayerlarda nimalardir ilg'angan, qayerlarda nimalardir inson aqliga sig'magan.

Til: ilm, ta'lim va targ'ib

Ona tili bitta bo'ladi!

Ona tili bitta bo'ladi / Tilimizning tilla sandig'i

Haqiqat shuki, til millatning tamalini tayin etadigan, iligini sog'lom saqlaydigan, asrlardan asrlarga to'zg'itmay olib o'tadigan betakror qudratdir.

***"Til - Eshmat yoki Toshmatniki emas" /
Tilimizning tilla sandig'i***

Xalqimizda "Tilga e'tibor – elga e'tibor" degan hikmatli so'z bor. O'zbek tiliga muntazam e'tibor, cheksiz hurmat-ehtirom jonajon O'zbekistonimizga tuganmas hurmat va muhabbat demakdir. Ota-onaga, yurtga, jon va tanimiz bo'lgan Vatanga munosib, sadoqatli farzand bu haqiqatni aslo unutmasligi lozim.

"Bebaho va boqiy boyligimiz" / So'z sandiqchasi

Til xalq, millat ruhining betakror va hech bir zamon xira tortmas ko'zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning sa'jiyasi, ruhiyati aks etadi.

"Avlod-u ajdodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandig'i

Tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun tanosibi tarang hodisa kamdan kam topiladi.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Ma’rifat manzillari

Biron-bir til va xalqni bir-biridan ayro holda tasavvur etish nomumkin yumushdir. Tilsiz xalq va xalqsiz til tushunchalari mohiyatdan mutlaqo mahrumdir. Xalq tilning tillo beshigida balogʻatga yetadi, til esa oʻz sohibi boʻlmish xalqning qalbidan kuch oladi, uning ardogʻida tarovat topadi. Til xalq birligining, xalq esa til barhayotligining poydor posbonidir.

Muqaddima / Tilimizning tilla sandigʻi

Xalq tushunchasining toyilmas tirgagi, uning tafakkur va taxayyul olamining ustuvor ustuni ona tilidir, chunki shu til, avvalo, olomon shaklidagi odamlarni yaxlit qavm oʻlaroq birlashtiradi, bu qavmning dunyoni bilish, anglash tarziga muntazam shamoyil beradi, shu tariqa uni tamaddun otligʻ buyuk neʼmatning oliy arshiga olib chiqadi.

Muqaddima / Tilimizning tilla sandigʻi

Til xalqning tafakkur tarzi-yu milliy saʼjijasini, yashash tarzi-yu ming yillik anʼanalarini, bir soʻz bilan aytganda, xalqning botiniy va zohiriy borligʻini aks ettiradi. Shuning uchun muayyan bir tushuncha bir xalqda mavjud boʻlsa, boshqasida mutlaqo boʻlmasligi ham tabiiy. Bunday hollarda bir xalqqa xos boʻlgan va muayyan bir soʻz bilan ifodalanadigan tushuncha boshqa tilda tavsiflash yoʻli bilan, bir necha soʻz

orqali ifodalanishi mumkin.

“Yonadigan nok” / Tilimizning tilla sandig‘i

Ona tili shu qadar sohir va ilohiy qudratki, uning siyratiga yashiringan sinoatlarni batamom inkishof etmoq uchun inson aqlining sinchilik salohiyati o'jizlik qiladi.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Odam bilan bog‘liq hodisalar orasida tilday murakkab, muhtasham va muhtaram boshqa hodisa yo‘q. Uning murakkabligi tilsim qadardir, uning muhtashamligi poyonsiz taxayyulga timsoldir, uning muhtaramligi ona rutbasiga tanosibdir.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

Xalqning necha ming yillik yugurik tarix qa'rida pinhon bo‘lgan totli va taxir kechmishlari, uning mutlaqo o‘ziga xos tarzda shamoyil topgan qadriyatlari, qisqasi, tadrijiy tamaddun pillapoyalarida to‘liqqan “men”ligi, eng avvalo, ayni shu tilga ko‘ra tirikdir.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

O‘zbek tili – o‘zbek xalqining bebaho mulki.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

Odam bolasi dunyoni o‘zining tiliga uyg‘un tarzda ko‘radi, o‘z tilining qat’iy ohanglari o‘zanlaridan chiqib ketmagan holda

eshitadi, o'z tilining azaliy va muntazam intizomiga muvofiq idrok qiladi. Shuning uchun ham til bemisl tilsimdir. Odam ana shu tilsimning ichida yashaydi, bu tilsimni odamdan, odamni esa bu tilsimdan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

Til har qanday xalqning dunyolarga bermaydigan muqaddas boyligidir. Xalqning butun uzun umri davomida yiqqan-tergan dunyosi ana shu boylikda o'z tajassumini topgan. Bu boylikka qilingan har qanday daxl yoki nopisandlik uning sohibi bo'lgan xalq nafsoniyatini, hamiyatini poymol qilish bilan barobar tarzda qabul qilinadi.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

Odam har qancha ko'p tilni bilmasin, uning mukammal va tamomila o'ziniki bo'lgan tili faqat bitta bo'ladi, bu, tabiiyki, uning o'z ona tilidir.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig'i

Til qaysi xalqqa oidligidan qat'i nazar shu xalq ma'naviyatining ustuni, asosidir.

“Til va ta'lim muammolari”

Til onadan bevosita o'tadi, butun sir-u sinoati, unda tajassum topgan milliy tafakkur tarzi bilan bevosita o'zlashtiriladi. Boshqa har qanday til esa ayni shu ona tili vositasida o'rganiladi. Ana shuning uchun ham ikkinchi bir tilni o'rganishning dastlabki bosqichida o'rganuvchi nutqida

ko‘pincha interferentiv xatolar, ya’ni boshqa tilga g‘ayriixtiyoriy ravishda o‘z til qonuniyatlari asosida yondashuv natijasida yo‘l qo‘yiladigan xatolar uchraydi.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Hamma holatda ham ona tilimizning sofliги uchun kurashuvimiz va sof gapira bilishimiz vijdoniy, milliy burchimizdir.

“O‘zbek tilining ijtimoiy tarixidan” / Til va madaniyat

Hadisi shariflarda “Kishining zeb-u ziynati, go‘zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim – qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o‘z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og‘ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

“Ma’naviyat ko‘zgusi” / O‘zimiz va so‘zimiz

Ona tilini tamoman esdan chiqarish hisobiga chet tilini o‘rganish o‘z ko‘zidan mosuvo bo‘lish bilan barobar, bunday qilish dunyoga faqat begona ko‘z bilan qarash demakdir.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga musallam va mutlaqo mos libos kiydira bilish, maqsadga muvofiq lisoniy ifodalarni saylay olish, so‘z bilan tinglovchining faqat qulog‘ini emas, balki

qalbini ham zabt eta bilish Sharqda, xususan, o'zbeklarda tarbiyalanganlikning, ma'rifatlilikning, ziyolilikning qabariq belgilaridan biri bo'lgan.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Ona tilini boshqa tillarning tazyiqidan, so‘z bosqinidan asramoq kerak, qo‘rimoq zarur.

***“Til - Eshmat yoki Toshmatniki emas” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Tilni tilga, xalqni xalqqa qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Biror til va xalq vakili bo‘lgan bosqinchilarning vahshiyliklari, shunday bir hovuch to‘dalarning kirdikorlari uchun til ham, xalq ham gunohkor yoki javobgar emas, buni tushunmaslik olomon falsafasi bilan ish ko‘rish demakdir.

“Ona tili bitta bo‘ladi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Har qanday shaxsning, irq-u e‘tiqodi, zaminu zamonidan qat‘i nazar, milliy-ruhiy mag‘zini ona tili tayin va ta‘min etadi.

***“Til - Eshmat yoki Toshmatniki emas” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

O‘zbek tili talotumli tarixning totli-taxir qa‘rida turli tillarning tazyiq-u tahqirlaridan qaddi xam bo‘lsa ham, adoqsiz imkoniyatlari bois olam ahlining aqlini shoshirgan benazir so‘z durdonalarining dunyoga kelishi uchun ulug‘ alloma-yu adiblar qo‘liga qalam tutqazdi. Yetti yot tillarning injiq istibdodi iskanjasida ingrasa-da, shu qodir qalam bois tilimiz o‘z

tabiatiga aslo zaxa yedirmadi, o'zining ming yillik mantig'iga munkir kelmadi... Eng muhimi, tilimiz dono ajdodlarimiz yo'rgaklagan benazir tajriba-yu qadri baland qadriyatlarimizni, bebaho ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimizni o'lmas meros o'laroq biz, avlodlarga yetkazib keldi, necha-necha avlodlarni bir-biri bilan zamonlararo bog'lovchi qo'porilmas ko'prik vazifasini iddaosiz bajardi.

Muqaddima / Tilimizning tilla sandig'i

Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Ma'rifat manzillari

Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakati qoidalarini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Ma'rifat manzillari

Xalq o'z tili haqida uning ibtidosidan boshlab ma'lumotga ega bo'lsa, bu tilning turfa tovlanishlari-yu, tarang va lo'nda mantig'ini chuqur his eta olsa, o'zining uzoq va murakkab tarixini ham chuqur his eta oladi, tarixidan faxrlana oladi,

o‘zinikidan boshqa tillarning ham muqaddasligiga, har jihatdan hurmatga loyqligiga imon keltira oladi. Bu esa xalqning o‘zligini anglashi demakdir.

“So‘z va unga muhabbat” / Til va madaniyat

Til xalqning bebaho mulki, undan har kim har kuni har qadamda foydalanadi, ammo bu tilning temir qonuniyatlarini har kim ham, albatta, bilaveradi, degani emas.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Matematika yoki fizikadagi qonuniyatlarni bilish uchun qanchalik maxsus tayyorgarlik zarur bo‘lsa, tildagi teran va tarang qonuniyatlarning mag‘zini xolis chaqish uchun ham shunchalik tayyorgarlik, xabardorlik zarur ekanligini unutmaslik lozim.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

O‘zbek tili asossiz ulug‘lashlar, soxta hamd-u sanolarga muhtoj emas. Bu til yer yuzidagi eng qadimiy va boy tillardan biri ekanligi o‘zimizda ham, xorijda ham mutaxassislar tomonidan xolis e’tirof etilgan.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Tilning taraqqiyotida uning sohibi mutlaqo hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Til o‘z egasining inon-ixtiyori, e’tiqod-u ehtiyoji, aqliy-ruhiy salohiyati, tafakkur va taxayyul talablaridan tamoman muxtor holda takomil sari odim otish imkoniyatidan tamomila mahrumdir.

“O‘zbek tili lug‘at boyligining rivojidagi jarayonlar”

Til faqatgina aloqa vositasi bo'ladigan bo'lsa, u ko'cha qoidalaridan farq qilmay qoladi.

“O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi”

Millatni millat qiladigan, uni mehvarida ushlab turadigan qudrat, bu – til.

“O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi”

Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko'pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to'g'ri anglamaslik natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilish, ko'rish, eshitish vositasi hamdir.

“Ona tilimiz kamoli”

Madaniyat va ma'rifatning, umuman, bashariyat taraqqiyotining qadimiy beshiklaridan bo'lmish yurtimizda azaldan so'zga hurmat, til sinoatlariga ehtirom ko'rsatib kelingan. Chunki odam otli muhtaram tushunchaning zamirida “Til” degan mislsiz ne'mat yotishi, uning asos ustuni til ekanligi haqiqatdir.

“Ona tilimiz kamoli”

Til odamga tabiat in'om qilgan bebaho ne'mat, uni maxluqot to'dasidan insoniyat rutbasidagi oliy sinf o'laroq ayirgan qudratdir. Bu oliy sinfn ing aql va ko'ngil mulki ayni shu tilga ko'ra munavvardir. Bashariyatning necha ming

yilliklar mobaynida to‘plangan butun aqliy va hissiy tajribalari ayni shu tilga ko‘ra salomat saqlanib keladi.

“Tilimizning kecha va kunduzi” / Til tilsimi tadqiqi

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til bor. Bu tillarning har biri tegishli millat yoki qavmning borligi va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti, tamoman o‘ziga xos tafakkur va taxayyul intizomining tarhi, o‘zgadan qarzgа olmagan izchil idrok tarzidir. Millat yoki qavm o‘z ibtidosidagi yo‘rgakdan uning intihosidagi oppoq kafangacha bo‘lgan fursatda shu timsolsiz olam ichida yashaydi. Odamni, olamni va ollohni tanimoqday mashaqqatli va sharaflı yo‘lning avval-oxir charog‘boni ham shu tildir.

“Til siyosati va siyosat tili” / Til tilsimi tadqiqi

Dunyoda o‘zining kimligini anglash, qavmining hamıyati va hurligini ko‘rish tuyg‘usi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson aqliy va ma‘naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi o‘zida bo‘lgan odamlarning barchasi e‘tirof etadi.

“Til siyosati va siyosat tili” / Til tilsimi tadqiqi

Til va millat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, birisiz ikkinchisining mavjud bo‘lishi aslo mumkin emas. Til millat mavjudligining, millat esa til mavjudligining asos belgisidir.

“Xalqaro til va ona tili” / Til tilsimi tadqiqi

Til muammosini hal etishning asosiy mezonini o'sha tilning ayni paytdagi holati, taqdiridir. Ma'lumki, har bir xalqning ona tili, bu – uning tarixi, urf-odati, an'analaridir. Mashhur tilshunos V.Gumboldtning aytishicha, tilda xalqning ruhi aks etadi, shuning uchun ona tilning taraqqiyoti xalq ma'naviy kamoloti garovidir.

“Ehtirosiga erk bermang”

Til faqatgina muloqot quroli emas, u inson ruhiy-ma'naviy dunyosining biki va betakror tirgagidir. Shuning uchun ham tilsiz muhabbat, sadoqat, e'tiqod kabi bir qator cho'ng tushunchalar tirgaksiz qoladi, shuning uchun ham tilga muhabbatsiz Vatan, el muhabbati muallaqlashadi.

“Tilimizning kecha va kunduzi” / Til tilsimi tadqiqi

Tilning yaxlit takomiliga daxldor belgilar ham, umuman, katta-kichik, maqbul-nomaqbul o'zgarishlar uning butun vujudida namoyon bo'ladi, bu vujud esa, asosan, tovushlar, so'zlar va grammatikadan tarkib topadi.

“So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik” / Til tilsimi tadqiqi

Til xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, olam sinoatlarini anglash va kelajak avlodlarga anglatishga imkon beradigan, qavmning qalbi qat'ridagi qiyossiz qudratni sog'lom saqlaydigan bemisl bir vositadir.

“Matn va til taraqqiyoti”

Odamni odam qilgan, uni tamaddun bilan qovushtirgan, madaniyat arshiga olib chiqqan alomat omil ham, avvalo, til ekanligi e'tirof etilgan haqiqatlardandir.

“Matn va til taraqqiyoti”

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar o'rtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot “oldi-berdisi”ning timsolsiz ta'minlovchisi. U yo'qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo'lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o'zida xalq, erki o'zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg'usini bir on faromush etmaydi.

“Matn va til taraqqiyoti”

Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi “aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir.

“Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...”

Koʻhna va qadim oʻzbek tilining ildizlari benihoya teran hamda mustahkam, uning ibtidosi milodiy asrlarga borib taqaladi. Aytish joizki, bu til ikki ming yillardan beri talotumli tarixning turli baland-past, tekis-notekis, odil-noodil chigʻiriqlaridan salomat oʻtib, sayqal topib kelmoqda.


“Milliy oʻzligimiz, gʻurur-iftixorimiz timsoli”

Til xalqning bebaho mulki, nodir va nozik boyligidir. Unda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarni qaritgan tarixi, istiqomatgohi boʻlmish hududlarning oʻziga xosliklari, qoʻyingki, millat otligʻ qavmning butun boʻy-bastiyu aqliy maʼnaviy olami qatrada quyosh aks etganiday oʻz tajassumini topadi. Shuning uchun ham til ilmining zukko bilimdonlari xalq tarixining suyaklar, qurollar va mozorlardan koʻra xolisroq koʻzgusi til ekanligini bir necha asr ilgari qayd etganlar.

“Fan tili va til fani” / Til tilsimi tadqiqi

YIL2836

*Fil siyosati
va siyosat tili*



YIL2836

Til siyosati deganda, davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo'yicha mafkuraviy tamoyillar va rasmiy-amaliy tadbirlar majmui, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari nazarda tutiladi.

“Til siyosati va siyosat tili” / Til tilsimi tadqiqi

Milliy o'zlikni, milliy ruhni muvozanatdan chiqarish uchun butun siyosat mashinasi safarbar qilingan qizil istibdod zamonida “ona tili” degan tushunchaning mohiyatini ham ishdan chiqarishga harakat qilindi. “Ikkinchi ona tili” degan mantiqsiz istiloh taomilga kiritildi. Ona faqat va faqat bitta bo'lganidan keyin uning tili ham bitta bo'lishi go'dakka ham ma'lum...

“Ajdod-u avlodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig'i

Mamlakatimizda “Davlat tili haqida”gi qonunimizga muvofiq odil va xolis til siyosati shakllandi. Shukurlarkim, o'zimiz kabi so'zimiz ozod bo'ldi, yurtimiz kabi tilimiz obod bo'ldi. Ozod so'z pokizalanmoqda, so'z olami obod bo'lmoqda. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'zining ozod va obod so'zi bilan, bu so'zga monand ko'lamli faoliyati bilan o'zligini dunyoga namoyish etmoqda.

Muqaddima / Tilimizning tilla sandig'i

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy – ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulodda muhimdir.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

Sotsiolingvistik tadqiqotlar tilning o'z sohibi bilan baqamti hayotining noravshan puchmoqlariga chiroq tutishga imkon beradi. Bu ma'noda sotsiolingvistika bugun dunyoda eng istiqbolli paradigma sifatida ustuvorlashib borayotgan antropotsentrik tilshunoslik o'zanlarida harakat qiladi. Sotsiolingvistik izlanishlarning ilmiy natijalari va bu asosdagi tavsiyalar mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi faoliyatini qonuniy va haqqoniy, xolis va har taraflama yo'lga qo'yish, uning mavqei va nufuzini oshirish ishlari ko'lamini yanada kengaytirishni natijador rejalashtirishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham til tadqiqiga sotsiolingvistik yondashuv nafaqat nazariy, balki favqulodda salmoqli amaliy ahamiyatga ham molikdir.

“Til va jamiyat tanosibi sinoatlari”

Tilning jamiyatga, jamiyatning esa tilga ta'siri bugungi antropotsentrik tilshunoslikdagi o'zak qoidalaridandir, til bilan birgalikda jamiyat, jamiyat bilan birgalikda til rivojlanib, o'zgarib, takomillashib boradi.

“Til siyosati va siyosat tili” / Til tilsimi tadqiqi

Sotsiolingvistik tadqiq va talqinlarda til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari, tafakkur va madaniyatning shakllanishi hamda rivojida tilning favqulodda o'zni muntazam nazarda tutilishi kerak. Hech bir jamiyatni mazkur muammolardan tashqarida tasavvur qilish mumkin emasligini isbotlash ehtiyoji yo'q.

“Til va jamiyat tanosibi sinoatlari”

Tildagi har qanday harakat, kattadir-kichikdir, muayyan maqsad hadafiga ko'ra yuz beradiki, bu maqsad faqat til egasi bo'lmish odam bolasigagina mansub bo'lishi mumkin, xolos. Ayni paytda shuni ham aytib o'tish joizki, tildagi muayyan o'zgarishlar yoki til taraqqiyoti uchun emas, balki tilni o'z o'zanidan chiqishiga yo'l ochadigan holatlar ham odamlar, lekin ayni til egasi bo'lmagan "begona" kishilar, noodil siyosat, boshqa tilning bosqini kabi omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi.

"O'zbek tili lug'at boyligining rivojidagi jarayonlar"


Davlat tiliga bo'lgan ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilish hayotimiz qoidasiga aylanishi yurtimizning har bir fuqarosi qalbida bikir hamiyatning barqaror bo'lishi demakdir.

"Milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli"

Har bitta xalqning o'z tilini himoya qilishi, unga hurmat-ehtirom ko'rsatishini ich-ichidan istashi, bu mutlaqo tabiiy hodisa sanaladi, tilday muazzam ne'mat bu ko'hna kurrai zamindagi har bir xalqning bebaho xazinasiga deb qaraladi va mutlaqo tabiiy ravishda qo'riqlanadi.

"Davlat tiliga e'tibor, ehtirom va sadoqat"

*Fil ta'limi oiladan
boshlanadi*



Har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma'naviy komillik, milliy o'zlik tarbiyasining bosh va betakror o'chog'i bolani doimiy o'rab turgan ijtimoiy muhit, xususan, oiladir.

“Ajdod-u avlodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Bolaning tili ona tili sifatida chiqib, ona tili sifatida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi.

“Ajdod-u avlodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig‘i

“Bola – loy, ona – kulol” degan maqol bor. Ona butun qalb qo'ri, mehr-u muhabbati, imkon-u iqtidori bilan shu oddiy loydan go'zal san'at asari yaratmoq uchun yashaydi. Bu tirik asarning har jihatdan tugal, komil, raso bo'lishi ona ko'nglining eng to'ridagi oliy orzudir. Bu orzuning to'kis ushalmog'i uchun, xususan, bolaning ona tilidagi ko'nikmalarining kamolga yetmog'i uchun ona ko'p mehnat sarflashi lozim.

“Oila, bola va til” / Tilimizning tilla sandig‘i

Odamning ilk dunyo sezgisi go'daklikdan boshlanadi. Demak, bu sezgiga maqbul va matlub shakl berish, uni rost va raso o'zanga yo'naltirish, uning o'tkir va teran tafakkur, aniq va tiniq tasavvur, zamon va makon sarhadlaridan sakray biladigan taxayyul tarzida to'liqib borishi uchun poydor zamin yaratish ayni shu davrdan ibtido olmog'i lozim.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Ma'rifat manzillari

Musulmon bolasining qulog'i tashqi dunyoga ilk daf'a muborak azon sasi bilan ochiladikim, oiladagi bu ma'raka murg'ak vujudagi islomiy va insoniy ruh tarbiyasining ibtidosidir. Shu pokiza sas ketidan beg'ubor go'dak ona tilida eshitadigan avvalgi kalom o'zining yarashqli ismi sharifidirkim, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, "tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish bo'lib, uni oti bilan chaqirganlarida, u uyaladigan bo'lmasligi kerak".

"Ajdod-u avlodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandig'i

Hali tili chiqmagan, hali nafaqat til degan muhtasham olamdan, balki boshqa olamlardan ham mutlaqo bexabar murg'ak jonning ona tilidagi alladan, undagi oppoq ohang va onaning oydin orzu-umidlarini opichlagan so'zlardan g'ayrishuuriy bir tarzda huzur tuyib, adoqsiz orom aro sel bo'lishi hayratli emasmi?..

"Ajdod-u avlodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandig'i

Bolalikdan jism-u joniga mehr-u muhabbat, milliy tuyg'ular, olijanob fazilatlar, ezgu orzularni ona tili vositasida jo qilmagan insonning ma'naviy kamolot pillapoyalariga dadil qadam qo'ya bilmog'i mushkul. Ota va ona bu go'zal tuyg'ulami, insonlikning tamalini tayin etadigan axloqiy qoidalarining asoslarini jon-u jahoni bo'lmish farzandining murg'ak shuuriga muqaddas ona tilida singdirmas ekan, keyingi ta'lim-u tarbiya, ta'na-yu dashnom, maktab-u madrasalarning ta'siri hech va kechdir.

"Ajdod-u avlodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandig'i

Ona tiliga nopisandlik bilan qarash, uni unutib, chet tilini o'rganish oiladan, bolalikdan boshlansa, unda milliy ruh beshikda jon berdi deyavering. Ona tili bilan birga bolada o'zbekona milliy ruh ham yo'qoladi.

“Ajdod-u avlodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig’i

Ona tili xalq ruhiyatining baquvvat zamini va ayni paytda mustahkam ihota qobig’i sifatida sobit bo‘lmas ekan, xorijiy til, masalan, ingliz yoki rus tili bolaning birinchi tiliga aylanar ekan, undagi milliy ruh ham inglizcha yoki ruscha va yoki mutlaqo muallaq bo‘lishi tabiiy. Ruhan o‘zbek bo‘lib, o‘zbek emas, rus bo‘lib, rus emas, milliy-ruhiy arosatning aro yo‘lida qolgan bandaga vatanparvarlik, milliy hurlikka posbonlik, ona yurtga adoqsiz muhabbat kabi ulug‘ tuyg‘ularni tushuntirish, undan bularni talab etish qiyin.

“Ajdod-u avlodni allalagan til” / Tilimizning tilla sandig’i

Oila ham kichik bir davlat degan hikmatomuz gap bor. O‘zbek tili, eng avvalo, ana shu kichik davlatchada chinakam davlat tili sifatida parvarish qilinmas ekan, jajji farzandlarimiz qalbiga ajdodlarimizning hamisha tirik nafasini olib kirmas ekan, u yaxlit va yagona yurtimizning davlat tili sifatida takomil topishga qiynalishi tayin.

“Oila, bola va til” / Tilimizning tilla sandig’i

Bolaning nutqidagi har qanday nodurustlik, noqislik, xoh katta bo‘lsin, xoh kichik, onaning ziyrak va mehribon nigohidan chetda qolmasligi lozim. Uyda, xususan, bolalar

oldida kattalar tugal va toza nutq bilan muomala qilmoqlari, soʻzni chala, qisqartirib talaffuz etmasliklari, turli guruhlarning jargon soʻzlarini ishlatmasliklari maqsadga muvofiq. Bolada taqlidchilikning juda kuchli boʻlishini hamma biladi, u qulogʻiga tushganini darhol oʻzlashtiradi.

“Oila, bola va til” / Tilimizning tilla sandigʻi

Soʻzga chechanlikning ilk kurtaklari bolalikdan parvarish qilinmasa, soʻz hissi, goʻzal ifoda zavqi oilada kamol topmasa, keyin, maktabga borgandan soʻng bolaning tilini burro qilish qiyin kechadi. Bu yumushlarning barini maktabga tashlab qoʻyish, insofdan emas. Bolaning tili tamoman qotib boʻlgandan keyin maktabda bu tilni butunlay yangidan goʻzal shaklga solish oson boʻlmaydi. Muayyan bir sheva talaffuziga mutlaqo tabiiy bir sharoitda moslashgan tilni adabiy talaffuzga oʻrgatish uchun maktabda oʻqituvchi hazilakam kuch, mehnat sarflamaydi, ammo natija hamisha ham koʻngildagiday boʻlavermayotgani hech kimga sir emas. Ziyrak ota-ona bola hali uydaligidayoq unga adabiy til haqida ham oddiy, ilk tushunchalarni bilganicha berib borsa, yomon boʻlmaydi.

“Oila, bola va til” / Tilimizning tilla sandigʻi

Millat bolasini jaholat otligʻ illat balosidan qutqarmoq ishtiyoqi bilan yonib yashagan bobomiz Abdurauf Fitrat mana bunday degan edi: “Maʼlumki, odam birinchi tarbiyani onasining bagʻrida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning taʼsiri odam tabiatiga mustahkam oʻrnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi”.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandigʻi***

Farzandning til tarbiyasida, umumiy kamolotida mantiqiy tafakkur malakalarining oʻrni benihoya katta ekanligi maʼlum, shuning uchun, eng kami, yaxshining yaxshi, yomonning yomonligini mantiqan farqlash yoʻllari haqida oʻgʻitlar berish ham ota-onaning boʻyinidagi burchdir.

“Oila, bola va til” / *Tilimizning tilla sandigʻi*

Bolalarimiz nutqidagi koʻpincha koʻzga tashlanadigan noʻnoqlik, ijodiy fikrlashning oqsoqligi, fikr bayonida qolipdan chiqolmaslik, tafakkur toʻmtogʻligi kabi qusurlarning ildizlari teran mantiq malakalarining zaifligi bilan bogʻliq ekanligini isbotlab oʻtirishning hojati yoʻq. Mantiqiy tafakkur tarbiyasi masalasida ham oila boshlangʻich nuqta boʻlmogʻi lozim.

“Oila, bola va til” / *Tilimizning tilla sandigʻi*

Kattalar nutqidagi har qanday noqislik yoki tugallik sekin-asta goh gʻayrishiuriy, goh ongli tarzda bolaning nutqiy koʻnikmalarida barqarorlashib boraveradi. Bolaning kattalar nutqiga dastlabki taqlidi vaqt oʻtishi bilan odatiy taxlitga kirib ketaveradi. Shu paytda ongga oʻrnashgan har qanday til koʻnikmalaridan, u xoh yaxshi boʻlsin, xoh yomon, keyin qutulish anchayin qiyin kechadi.

**“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
*Tilimizning tilla sandigʻi***


Bola yorugʻ dunyoga kelgan soniyadan boshlaboq uning qulogʻi odatda u yoki bu shevadagi nutq taʼsirida boʻladi; istaymizmi-yoʻqmi, tili ham shu shevada chiqadi, oilada to

bolaning tili qotguncha uni adabiy talaffuz tomon tortishga urinib ham ko‘rilmaydi. Keyinchalik uni adabiy talaffuzga o‘rgatish uchun ko‘p kuch sarflanadi, ammo natija hamisha ham ko‘ngildagidek bo‘lavermaydi. Hatto til va adabiyot o‘qituvchisi bo‘lib yetishgan, aytaylik, xorazmlikning «o» tovushini, buxorolikning «o‘» tovushini sof adabiycha talaffuz qilishi mushkulotga aylanadi. Ana shu tufayli “Bolaning tili rosa chiqib olaversin, uning nutqiy madaniyati haqida qayg‘urish qochmas, maktab hammasini o‘rgatadi” qabilida mulohaza qilish aqlning ishi emas. O‘z farzandining tili burro va dili ro‘shno, so‘zga chechan va fikri teran, so‘z bilan ilonni inidan chiqara biladigan bo‘lib fazl-u kamolga yetishini astoydil istaydigan ota-ona buni unutmazligi kerak.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

YIL2836

*Soʻzga sinchilik
saodati*



YIL2836

Soʻz olami – benihoya muhtasham va serjilo xilqat. Bu dilbar dunyoning goʻzal va betimsol qiyofalarini, ulugʻ Haq va haqiqatga topinmoq va talpinmoqning pokiza yoʻllarini ifoda etmoqday adoqsiz imkoniyatlaridan lol-u hayron qolib, hayrat barmogʻini tishlamagan zot yer yuzida yoʻq. Insoniyat paydo boʻlibdiki, u soʻz qudratiga ishonib, soʻz sehdan aqli shoshib yashaydi. Ming yillik tafakkurimizning soʻnmas shamchirogʻi boʻlmish islomiy falsafada “Soʻz – sehr” degan hikmat bor. Demakki, soʻz muqaddasdir. Bu muqaddas olamga toza niyat bilan kirmoq va sirlashmoq buyuk baxtdir.

“Soʻz-la sirlashmoq baxti”

Soʻz, til behad murakkab va muhtasham bir xilqatki, undan raso va rost foydalanmoq uchun bu xilqatga paypaslanib, tasmollab emas, balki ochiq koʻz va aniq sezgi bilan kirish kerak.

***“Til - Eshmat yoki Toshmatniki emas” /
Tilimizning tilla sandigʻi***

Soʻz yarador boʻlsa, qoʻshiq parvoz qilolmaydi.

“Soʻz yarador boʻlsa, qoʻshiq parvoz qilolmaydi”

Bir narsani juda qattiq va astoydil sevmok, qadrlamok uchun, eng avvalo, bu narsaning maʼno mohiyatini chuqur anglamok, qimmatini aniq bilmok zarur. Oʻzbek tiliga chinakam muhabbat qoʻyish uchun ham gʻayrat va jurʼat bilan uning sehrli olamiga kirish kerak. Bu olamdagi eng ajoyib va gʻaroyib xazina esa soʻz boyligidir. Ana shu xazinani qanchalik yaxshi egallasangiz, tilingiz burrolashib, zehningiz oʻtkirlashib,

fikringiz tiniqlashib boraveradi. Sizda sog'lom til tuyg'usi, nozik so'z sezgisi, go'zal va ta'sirli nutq zavqi shakllanadi va asta-sekin kamol topib boradi.

“Bebaho va boqiy boyligimiz” / So'z sandiqchasi

O'qdan o'tkir so'zni o'rnida so'ylatmoq xalqimizning aslida, azaliyatida bor fe'ldir.

“O'zbekning o'lmas so'zi” / Tilimizning tilla sandig'i

Tilning boyligi, eng avvalo, undagi so'z xazinasida namoyon bo'ladi. Ayni paytda jamiyat tarixining baland-past, odil-noodil, ma'qul-noma'qul yo'llarida voqe bo'ladigan ming bir evrilishlar, “shunchaki” degan so'zning nimjongina yelkasini bazo'r band qiladigan voqeadan tortib, jahonshumul degan o'lchovlarning belini bukib tashlaydigan hodisalargacha, hech shubhasiz, tilning ana shu hajmdor ganjinasida o'z aksini topadi.

“Tilimizning tilla sandig'i” / Tilimizning tilla sandig'i

So'zning sirli sadolarini tinglamoq, undagi inja ma'nolarning turfa tovlanishlaridan huzur tuya olmoq – ona tilimizning betimsol sehr-u sinoatidan tug'ilguvchi pokiza hayratni qalbga joylamoq baxtiga noil bo'lish uchun turkiy so'z imkonlarini tugal namoyish etguvchi ko'rkam asarlar bilan dildan oshno bo'lmoq lozim.

***“Muhabbatga qo'yilgan haykal” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo, uning tilida zuhur etadi. O'zbek tilining tabiati va mantig'ida xalqimizning saviyasi va tafakkur tarzi o'z tajassumini topgan. Aslida so'zimiz bizning o'zimizdir.

So'zboshi / O'zimiz va so'zimiz

O'zbek so'zning muqaddasligiga hamma zamonlarda iymon keltirgan, hech qachon o'zining so'zidan tonmagan, lafziga munkir kelmagan, so'zni o'z farzandi kabi oq yuvib, oq taragan xalq.

So'zboshi / O'zimiz va so'zimiz

Bu qadim yurtda, nafosat-u ma'rifatning ko'hna maskani bo'lmish ona Turkistonimizda so'zning qadri ham, qaddi ham azaldan bo'lgan.

So'zboshi / O'zimiz va so'zimiz

So'zga oshuftalik, so'zning ostini ham, ustini ham ko'ra olishga intilish, nutqning latifligidan, nutqdagi so'zlarning favqulodda uyg'unligidan zavqlanish, ona tilida ta'sirli nutq ayta oluvchiga, xitobat san'ati sohibiga ayrica havas bilan qarash o'zbekning azaliy urflaridandir.

"Ajdod-u avlodni allalagan til" / Tilimizning tilla sandiq'i

Jamiyat tarixi – so'z tarixi, so'z tarixi esa jamiyat tarixidir. So'zlarni, aniqrog'i, muayyan davr so'zlarini surati, siyrati va butun sinoati bilan salomat saqlaydigan sandiq, albatta, lug'atlar ekanligini isbotlashning keragi yo'q. Mashhur fransuz

adibi Anatol Fransning “Lug‘at alifbo tartibidagi butun olamdir” degan gapi juda ham topib aytilgan.

“Tilimizning tilla sandig‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Tarang va tiniq mantiqni, o‘tkir va oydin ohangni, ota meros zamin va yugurik zamonni allalovchi hamisha tirik turkona tilimiz xazinasining avvalida benihoya muhtasham va muqaddas bir kalom bor, u *Haq* degan so‘zdir. Bir-u Borning asl ismi bo‘lmish bu tabarruk so‘z ona bo‘lib, yagona o‘zak bo‘lib, tilimizda *haqlik*, *haqlilik*, *huquq*, *haq-huquq*, *haqiqat*, *haqiqiy*, *haqqoniy*, *haqqoniylik*, *haqqoniyat* kabi bir qancha mo‘tabar so‘zlar yaratilgankim, ular mazmunining chin ro‘yobi yo‘lida ne-ne mardlar o‘lim bilan o‘ynashgan, o‘limni o‘ldirgan, haq tantanasi uchun o‘z aziz jonlarini shunchaki bir badal deb bilganlar.

“Yolg‘onning po‘rim qalpog‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Har bir kasb egasining o‘ziga xos ish quroli bor, bu qurol ishni bajarishni osonlashtirishga, qulaylashtirishga yordam beradi, shuning uchun ishni tugatgandan keyin tadbirli odam ish qurolini tozalab, tartibga keltirib, avaylabgina bir chetga olib qo‘yadi. San’atkor ham xuddi shunday, dutor, tor yoki boshqa cholg‘u asbobini ehtiyotlab g‘ilofda asraydi, ovozinig ham buzilmasligi uchun tegishli tadorigini hamisha ko‘rib yuradi. Ammo taassuflar bo‘lsinki, eng asosiy qurollaridan biri bo‘lmish so‘zga esa aksar san’atkor benihoya sezgisiz, palapartish, nopisand munosabatda bo‘ladiki, bu ham bir urfga aylanib bormoqda.

***“Til - Eshmat yoki Toshmatniki emas” /
Tilimizning tilla sandig‘i***


Ona soʻz bagʻriga bokira goʻdakday bosh qoʻyib, huzunsiz huzur va tunganmas hayrat tuya olgan, butun vujudi ila ona soʻz ruhiga asir boʻla olgan kishilargina oʻtmishidan, ajdodlaridan, Vatanidan faxrlana oladilar.

“Maʼnaviyat koʻzgusi” / Oʻzimiz va soʻzimiz

Chinakam xalq soʻzining umri uzun, u asrlardan asrlarga oʻtib yashayveradi.

“Oʻzbekning oʻlmas soʻzi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Jo'yali nutq sirlari



YIL2836

Agar odamda til zavqi, nazokatli soʻz sezgisi, ona soʻzdan huzurlanish hissi boʻlmas ekan, unda nutq madaniyati malakalarini balogʻatga yetkazishga urinish behuda mashgʻulotdir.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandigʻi***

Agar nutq oʻzida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsa-yu, har jihatdan joʻyali, yaʼni oʻz oʻrnida boʻlmasa, u maqsad nishoniga borib yetmaydi. Joʻyalilik yoʻq joyda nutqning boylik, aniqlik, ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati muallaqlashadi.

“Oʻrinli soʻzga tuya choʻkadi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-maʼrifiy taraqqiyotining, millat maʼnaviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy maʼnodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandigʻi***

Oʻz nutqining joʻyali boʻlishini istagan kishi nutq tuzar ekan, bu nutqni tinglovchi yoki oʻquvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, madaniy-maʼrifiy saviyasi kabi jihatlarni ham nazardan qochirmasligi zarur. Ayniqsa, oʻqituvchi bu borada juda hushyor boʻlishi, oʻz oʻquvchilari uchun ibrat koʻrsatishi maqsadga muvofiq. Uning har bir jumlasida ana shu jihatlarni toʻlaligicha oʻzida mujassamlashtirgan namuna darajasida tuzilishi kerak.

“Oʻrinli soʻzga tuya choʻkadi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Tilimizda muayyan bir fikrni bir qancha shakl-u shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shakl-u shamoyilni tanlash, muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining mahorat-u malakasi, ma'rifat-u ma'naviyatiga bog'liq. Muloqot vaziyatini tugal his etmasdan turib tanlangan lisoniy ifoda, har qancha go'zal bo'lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi.

***“Avlod-u ajdodni allalagan til” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Fikrni ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoq uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak. Chunki nutq madaniyati tildan bema'lol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Jurnalist mahoratining ibtidosi tilni to'g'ri va benuqson qo'llay bilish malakasidan, ziyrak so'z sezgisi va sevgisidan boshlanadi.

***“Ko'ngilochar gazetalardagi ko'ngilsiz gaplar” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas

imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasiniig tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq.

Nutqingiz quloqni qiynamasin" / Tilimizning tilla sandig'i

Nutqning aniqligi, mantiqiyliigi, ifodaliligi, boyligi, sofligi kabi tilning tirikligi, ta'sirchanligi va jozibadorligini ta'min etadigan sifatlar bilan so'zlovchini, o'quvchini yaqindan oshno etishga qaratilgan ishlar ona tili ta'limida uzoq vaqt o'zining munosib o'rnini egallamay qolib kelgani achinarlidir. Buning natijasida, grammatik jihatdan to'g'ri, ammo ruhsiz, jonsiz, tarovatsiz, shirasiz jumlarlar maqbul nutq namunalarini sifatida taqdim etilganki, bular bolalarning so'z sezgisini o'stirishga emas, balki o'ldirishga ko'maklashgan, oqibatda ona tili darslari bola ko'ngliga til zavqini olib kirolmay qiynalgan...

"Nutqingiz quloqni qiynamasin" / Tilimizning tilla sandig'i

Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik (rang-baranglik), soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Nutqning to'g'riligi, ya'ni uning adabiy til mezonlari (talaffuz, so'z urg'usi, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik, uslubiy mezonlar)ga qat'iy mosligi madaniy nutqning asosi, markaziy sifatidir. Ammo har qanday to'g'ri nutq madaniy bo'lavermaydi, u zikr etilgan boshqa kommunikativ sifatlarga ham ega bo'lgandagina chin ma'nodagi madaniy nutq rutbasini ola biladi. Shunga qaramasdan, taassufki, uzoq vaqtlar bizning ta'lim tizimimizda, asosan, nutqning ana shu kommunikativ sifatiga, ya'ni nutqning to'g'riligigagina diqqat qilindi, shu sifatni o'stirishga zo'r berildi.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarda bog'li nutq malakalarini shakllantirishga, ijodiy va mustaqil matn tuzish qobiliyatini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bu malaka va qobiliyatlarning tarkib topishi va rivojlanishini mantiqiy nutq tushunchasiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Mantiqiy nutq tuzish bog'li nutq tuzish, ijodiy matn yaratishning birlamchi asosidir. Buni, qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar, har bir o'qituvchi hamisha yodda tutmog'i lozim.

“Nutqning mantiqiyligi / O'qituvchi nutqi madaniyati

Notiq, xususan, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, tilning tovush qurilishi bilan bog'liq bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

“Ovoz — fikr libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Notiqning umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzvlaridan biri ovozning sifati, tovush qurilishi bilan bog'liq xususiyatlardir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tilshunoslikda nutq texnikasi deb umumlashtiriladi. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diksiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Albatta, bundagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

“Ovoz — fikr libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Hech kimga sir emaski, har qanday matbuotning yagona quroli tildir, bu qurolning maqsad nishoniga salomat yetmog'i uchun, avvalo, uning o'zi sog'lom bo'lmog'i lozim. Ayni shu yagona quroli nogiron bo'lgan matbuot tishsiz-tirnoqsiz, demakki, ta'sirsiz va hatto yaroqsiz bir narsaga aylanadi.

***“Ko'ngilochar gazetalardagi ko'ngilsiz gaplar” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Gazeta soʻzining taʼsiri sust boʻlsa, soʻz uvol, qogʻoz uvol, texnika uvol, mehnat uvol... Shugina emas, gazeta tilidagi, kattadir-kichikdir, noqislik jamiyatda til didsizligini ham targʻib qiladi, gazetxonning nutq madaniyatini moʻrtlashtiradi, uning tirik ona soʻz tuygʻusini oʻtmaslashtiradi.

**“Koʻngilochar gazetalardagi koʻngilsiz gaplar” /
*Tilimizning tilla sandigʻi***


Ulugʻ bobomiz Yusuf Xos Hojib “Odob ning boshi tildir” deb bejiz oʻgit bermaganlar. Zotan, nutqning goʻzalligi, tilning burroligi, lisoniy ifodaning aniqligi inson uchun oʻziga xos husndir, bu husn oxir-oqibatda jamiyatning, millatning husnini koʻrsatadi.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / *Tilimizning tilla sandigʻi*

Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, oʻzining ona tiliga muntazam muhabbat bilan qaragan, uni eʼzozlab ardoqlagan, oʻzbek tilining mukammalligi va betakror ohanglaridan faxr-u iftixor qilgan. Oʻzbek tilidagi tarang mantiq va goʻzallikni har soniya inkishof etishga ishtiyoq sezgan. Shuning uchun ham oʻzbek oʻynab gapirsa ham, oʻylab gapiradi. Shuning uchun ham oʻzbek qopib emas, topib gapiradi.

“Avlod-u ajdodni allalagan til” / *Tilimizning tilla sandigʻi*

Fil va fazilat ilmi



Odam xilma-xil insoniy tuyg'ular, fazilatlarining sohibi sifatida haqiqiy shaxs maqomini oladi, jamiyatning faol a'zosiga, jamiyatni rivojlantiruvchi kuchga aylanadi. Ayni shu tuyg'ular orasida bir tuyg'u borki, u shaxsiyatga mohiyat va shakliyat baxsh etadigan tengsiz vosita o'laroq bosh o'rinni egallaydi. Bu tuyg'u hamiyatdir.

“Hamiatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig'i

Hamiatli jamiyat hamiatli a'zolar bo'lgandagina shakllana oladi.

“Hamiatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig'i

Jamiyat hamiatining himoyachisi, eng avvalo, ona tilidir, chunki millatning bosh belgisi til bo'lib, unga har qanday nopisandlik bevosita jamiyatga nisbatan hurmatsizlik tarzida idrok etilmog'i tabiiy. Chinakam hamiatli odam o'z ona tiliga aslo nopisandlik bilan qaramaydi, boshqalar tarafidan nafaqat o'z tilining, balki o'zga tillarning ham, zarracha bo'lsin, kamsitilishiga befarq bo'lmaydi. Ona tiliga har qanday daxlni u o'z hamiatiga daxl deb biladi. Hamiatli odamgina ona tilining oxirsiz ohangidan faxr tuya biladi.

“Hamiatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig'i

Har qancha iddaosiz bo'lsa ham, viqor viqorda, u o'zganing hamiatiga bir qadar tegishi mumkin qabilidagi andisha bilan Sharqda viqorning o'zi tanho kuylanmagan, unga bir chimdim hasrat degan ohang qo'shilgan. Bizning ming yillik musiqamiz, ashulalarimiz, Yevropami, Osiyomi, butun dunyo ahlining aqlini shoshirib, hayratini oshirayotganining boisini men, eng

avvalo, ana shu noyob durdonalarimizda ham bizning hamiyatimiz, ham ularning hamiyati baralla o‘z inkishofini topganligida ko‘raman.

“Hamiyatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

Sharqda hamiyatlilik qanchalik yuksak fazilat bo‘lsa, hamiyatsizlik shunchalik haqoratli nuqson sanalgan. Hamiyatli odam kek-u kibrdan, hirs-u tamadan, g‘iybat-u hasaddan, yolg‘on-u yaltoqlikdan xoli bo‘ladi. Hamiyati bor odamdagina diyonat va shijoat, qanoat va sadoqat, adolat va haqqoniyat, himmat va jasorat, kechirimlilik va qalb intizomi kabi go‘zal xulqlar salomat yashaydi.

“Hamiyatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

Insonning ona tabiat va jamiyat oldidagi burchi va bu burchni, biror soniya bo‘lsin, yoddan chiqarmaslik – shoir qalbining talabi.

“Qalbimning bayrog‘idir so‘z”

Burch va loqaydlik bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbdir. Burch yodi but bo‘lsa, loqaydlik lomakon bo‘ladi, lekin loqaydlikning kichik bir ko‘rinishi zohir bo‘ldimi, burch tushunchasining tagiga suv ketadi, munofiqlik, xiyonat, aldoq kabi balolarning kuni tug‘adi.

“Qalbimning bayrog‘idir so‘z”

Inson bolasi ma’rifiy-ma’naviy komillik osmonlarining yettinchi qatiga chiqmog‘i uchun minnatsiz narvon bo‘ladigan

oddiy, ammo oliy sifatlarning allaqanchasini sanash mumkin. Lekin ular orasida mavjud insoniy fazilatlarining deyarli barchasi uchun asl asos, bu fazilatlarining muntazam yuksalmog'i, mo'rtlashib, muallaqlashib qolmasligi uchun zarang zamin va poydevor bo'ladigani rostlik tushunchasidir.

“Yolg‘onning po‘rim qalpog‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Insonning ma'naviy olamini rostlik tushunchasi, haq tushunchasi batamom zabt etmas ekan, ma'naviyat deyiladigan bu cheksiz va sinoatli xilqat rostlik saltanatiga aylanmas ekan, inson buyuk qudratga sohib bo'la olmaydi.

“Yolg‘onning po‘rim qalpog‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Milliy hamiyat, umuminsoniy qadriyat va milliy o'zlik idrokining barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy g'urur va iftixor, Vatanga teran muhabbat va istiqolga adoqsiz sadoqat kabi ma'naviy kamolotning o'zagini tayin etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham alloma ajdodlarimiz tildagi ana shu mo'tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta'sirchan vositasi deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o'rinli foydalanmoq uchun, avvalo, insonda til tuyg'usi tarbiyasi tugall bo'lishi, ya'ni ona tilining mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy sezgi bilan ham idrok etish ustuvorlashishi lozim.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

Islom falsafasi tarixidan o'zining muhtasham o'rnini egallagan buyuk ajdodimiz Abu Homid Muhammad ibn

Muhammad al-G‘azzoliy “Ayyuhal valad” (“Ey, farzand”) asarida mana bunday so‘zlarni bitgan: “Ko‘ngil tusar dunyo ishlariga mubtalo bo‘lgan kishilar yana “ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q” qabilida fikr qiladilar”. Bunday faqat ilmning o‘zi bilan kifoyalanish shariatni inkor qiluvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular ilm hosil bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa, bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilishmaydi. Holbuki, o‘qib o‘zlashtirgan ilmiga amal qilmagan odamning qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytadilar: “O‘qigan ilmi foyda bermagan olimning qiyomatdagi azobi qattiq bo‘ladi”. Hazrat Alisher Navoiy bu xususda shunday deganlar: “Ulki buyurub, o‘zi qilmag‘ay va hech kimga foyda va asar aning so‘zi qilmag‘ay”.

“Yolg‘onning po‘rim qalpog‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Mashaqqatga cho‘chimay, jonini jabborga berib, tunni tongga ulab, o‘z sohasiga chin ko‘ngil qo‘yib mehnat qilgan olimning dong‘i chiqmay qolmaydi.

“So‘z-la sirlashmoq baxti”

Insonning qalbida Vatan istiqloliga, o‘z ilm-u so‘ziga chin sadoqat barqaror bo‘lmas ekan, uning har qanday ilmi, chiroyli gapi faqat o‘zining xususiy kichkina tegirmonchasi uchun xizmat qiluvchi vosita bo‘lib qoladi xolos.

“Yolg‘onning po‘rim qalpog‘i” / Tilimizning tilla sandig‘i

Ko‘plab yoshlarimizning ingliz yoki fransuz tilida bu til egalarining o‘zlariday emin-erkin notiqlikni dangal o‘rniga qo‘yayotgani tamoman tahsinga shoyon, ammo ming bir

taassuf bilan aytish kerakki, ba'zilarining hatto ona tili tovushlari talaffuzida turtinayotgani va buni shunchaki oddiy hol deb tushunayotgani (yoki buni o'zga tilni mukammal bilishning belgisi deb bilayotgani) ulardagi hamiyat halokatining hosilasidir.

“Hamiyatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

Xorijiy tillarni o'rganish oson ish emas, unga mashaqqatli mehnat bilan erishiladi. Bugun bu tillarni mukammal va muntazam o'rganish mutlaqo zarur, bu kunday ravshan haqiqat, lekin ona tili unutildimi, o'zga til tafakkuri va taomili har qanday zakiy shuurni o'z izmiga oladi, ongni osonlik bilan tizginlaydi. Oddiy mantiq bilan ish ko'rilsa, ona tili olamini tark etmasdan, ona tili orqali chet tillarini o'rgansak, bila turib begona tushovga tushmaymiz.

“Hamiyatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

Bizning qadimiy yurtimizda axloq benihoya serqamrov, mo'tabar tushuncha sifatida ardoqlab kelinadi. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to'lqinlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rni farqlay bilish, nutqiy fahm-u farosat, tarhli nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan.

***“Nutqingiz quloqni qiynamasin” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Elni erkka eltmoqday ulug' niyatga erishmoq uchun mustabid va makkor tuzumning to'ng dag'dag'alaridan

qo'rqmay haq so'zni dangal ayta olgan, yurtning ozodligi yo'lida o'z fidoyiligi bilan o'limni o'ldirgan minglab mard ajdodlarimiz ruhi poklari har on bizning xotiramizda ekanligi haqiqat. Ular bu hur davrni yaqinlashtirmoq, yaratmoq uchun o'z aziz jonlari badaliga zamin hozirladilar.

“Shishaga yashiringan shovinizm”

Kishilik jamiyati rivojiga daxl qiladigan qusurlardan biri xushomadgo'ylikdir.

“Ijod va umr kamoloti”

Ezgulik, imon, e'tiqod, milliy o'zlik, muhabbat, sadoqat kabi toza tuyg'ular qalb qo'rg'onini ichdan ishg'ol etmas ekan, ma'naviy kamolot, demakki, Vatanga sodiqlik, haqiqatda sobitlik va erk esonligi yo'lidagi katta-kichik mushkulotlarga sobirlikning barqaror bo'lishi qiyin.


“So'z va soz” / Tilimizning tilla sandig'i

Aslini olganda, til bu — hamiyat. Til asli xalqning, millatning milliy o'zagi, o'zligini ko'rsatadigan keng qamrovli tushuncha.

“Davlat tiliga e'tibor, ehtirom va sadoqat”

YIL2836

Soʻz va sanʼat



Inson ruhiy olamining oydinlashuvi, ma'naviy kamolotining muntazamlashuvi, qalb qatlarida kechuvchi qamrovli inqilobiy jarayonlarning jadallashuviga bevosita ko'mak beruvchi vositalar ko'p. Ularning eng qudratli, eng ta'sirli, eng samaralilaridan biri, hech shubhasiz, san'atdir.

“So‘z yarador bo‘lsa, qo‘shiq parvoz qilmaydi”

Qo‘shiq bo‘ladigan she‘r muallifining ham, bastakorning ham, xonandaning ham tinglovchiga aytadigan aniq gapi, fikri bo‘lishi kerak. Aks holda, nogiron, dovdir, beyuz “qo‘shiq” tug‘iladi.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Mumtoz musiqamizdagi mungli ohanglar, olis moziydan bugunga qadar salomat kelayotgan ashulalarimizdagi dardolul nolalar birovdan shafqat tilash ilinjidagi yalinchoqlik, dardini dunyoga doston qilib, hamiyatini yerga urishday o‘rinsiz umidsizlik ifodasi emas, balki qayg‘uning ustiga hamiyat tirikligining dalili sifatida qo‘ndirilgan iddaosiz viqor, ta‘bir joiz bo‘lsa, o‘zga ko‘ngliga ozor bermaydigan o‘ktamlikning betakror tarannumidir.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Benihoya buyuk kuch va sohir qudrat bo‘lgan so‘z azaldan inson bolasining aqlini shoshirib keladi. Ayniqsa, nazm degan nozik va tarang tartibga tushgan so‘zlarning rangin raqsidan hayratlanmagan hushli odamni topish mushkul. Yorug‘ yurak va jasur orzu egasi Cho‘lponning **“Sen tilga ipakdan ko‘ylak kiygizding”** degan nafisdan ham nafis misrasi bor. “Ipakdan

ko‘ylak kiygan til” — she‘r, u ohang og‘ushida oqmoqqa, esharmoqqa, nafasot otashida so‘zona bo‘lmoqqa yetishgan so‘zdir. Bunday so‘zona so‘zning adoq bilmas qudrati soz bilan birlashsa, yanada buyuklik, yanada suyuqlik kasb etadi.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Gap milliy san‘atimiz haqida borar ekan, san‘atkor hamiyati bilan bog‘liq yana bir gapni aytish lozimdir. San‘atkorning to‘rtta odam oldidagi so‘zi va harakatida, kulgisi-yu yig‘isida tishga bossa bo‘ladigan, hech yo‘q, ushoqdek mag‘iz bo‘lishi kerak. San‘atkorning ijod xaltasida ana shunday mag‘zi yo‘q so‘z va harakat bolalay boshlasa, buni u vaqtida ilg‘ay olmasa, aniqki, uning el oldidagi e‘tibori tugaydi.

“Hamiatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

San‘atkor badiiy so‘zi, kuyi, qo‘shig‘i, raqsi bilan nima demoqchi ekanligini eng oldin o‘zi aniq-tiniq bilishi, aytmoqchi bo‘lgan gapiga o‘zi ich-ichidan ishonishi farzdir.

“Hamiatni yerga urmang!” / Tilimizning tilla sandig‘i

Xitoy faylasufi Konfutsiyning shunday gapi bor: “Dunyodagi har qanday xalqning aytayotgan qo‘shig‘ini keltiring, men uni eshitib, bu xalqni qanday idora etish mumkinligini aytib beraman”. Bu gapdagi ayovsiz haqiqat har bir ijodkorning shuurida muqim bo‘lmog‘i lozim.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Qo‘shiq millatning ma‘naviy dunyosi, tugal qiyofasini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun durust-nodurust she‘rning palapartish ohangga solinishi, xonandaning, bastakorning qo‘shiq matniga befarqligi maqbul sifat emas. Alisher Navoiy bejiz aytmagani: “Og‘ziga kelganni demoq nodonning ishi, Oldiga qo‘yganni yemoq hayvonning ishi”.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Bizning benihoya boy, “oldidan o‘tganda bugungi Ovrupo adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o‘tadigan” (Fitrat) adabiyotimiz bor, bu adabiyotning mahoratli davomchilari yaratgan bugungi barkamol she‘riyatimiz bor. Ular bilan yaqindan tanishib, o‘qib, o‘rganib, saralab, har qancha qo‘shiq yaratish mumkin. Xonanda va bastakorlarimizning adabiyotimiz bilan yaqindan oshno bo‘lishlari milliy qo‘shiqchiligidan rivoji uchun juda muhimdir.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Ba‘zan bemantiq, beparda, o‘zbekning hayo degan tushunchasini og‘rintiradigan gaplarning qorishmasi yaxshigina musiqiy ohangga solinadi. Bu yaxshi ohang besharm so‘zlar bilan to‘yinib, ta‘bir joiz bo‘lsa, shirin og‘uga aylanadi. Yosh qalbning shuuriga g‘alat va palag‘da tuyg‘ularni bildirmasdan olib kiradi... Aslida bunday tizmalar she‘r degan hikmatning eng oddiy talablariga ham javob bermaydi, hatto qofiya, vazn o‘lchovi degan gaplar ham ularda bo‘lmaydi.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Qo'shiqsiz qalb qattiq va qashshoq, qo'shiqsiz hayot hissiz va nursiz ekanligi bu eski dunyoning juda eski haqiqati. Dilimizga minnatsiz va musallam tilmochoq bo'ladigan, ko'nglimiz kulbasiga o'ktam bir nur olib kiradigan, ma'naviy dunyomiz osmonlariga charog'on bir chiroq yoqadigan vasilal mukarram – bu qo'shiqdir.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i
“

Qo'shiq shunday bir ne'matki, baxtiyor, masrur, hayajonli kunlarimizda ham, og'ir, hasratli, mahzun paytlarimizda ham u bizga hamroh, quvnoq lahzalarimizni tag'in ham yorqin shu'lalarga burkaydi, vujudimiz, qalbimizning shirin sezgilariga sur'at qo'shadi, bu sezgilarning anglanmas suratlari uchun tiniq oyina misol shakl beradi. Dil titraganda, do'stning va yoki yorning xanjar kabi xiyonatidan, yaxshilar umrining bebaqoligidan va yoki adolat otlig' chinorning nogoh beli bukchayganidan ko'ngil shishasi chil-chil bo'lganda, ko'zimizga yorug' dunyo qorong'i bo'lib ko'ringanda ham yuraklarimizga yana oydin nur bo'lib, oppoq ohang bo'lib qo'shiq kirib keladi. Qo'shiq – dalda, manzur bir malham, qalb og'riqlariga davo. Ammo, tabiiyki, chinakam badiiy barkamol qo'shiqqina inson ruhini poklovchi ana shunday buyuk ne'mat bo'la olishi mumkin.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i

Kinoning chin ma'nosi bilan san'atligini ta'min etadigan jihatlardan asosiysi, hech shubhasiz, uning milliyligidir. Darvoqe, milliylik hech qachon umuminsoniy qadriyatlarni inkor etmagan. Milliylikning mohiyati o'zlik ilmini anglatmoq,

milliy o'zlikni tugal idrok etmoqdir.

“O‘zbek ilmi va o‘zbek filmi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Kino san'atining behad qudratli tashviqot va targ'ibot vositasi ekanligi hech kimga sir emas. Unda badiiyat imkonlari, badiiy tafakkur va taxayyul parvozi uchun qulayliklarning chek-u chegarasi yo'q. Badiiy kinoda adabiyotning “atomdan kuchli qudrati” (A.Qahhor) teatr, tasviriy san'at, musiqa kabi inson qalbiga po'rtanayu sokinliklar olib kiruvchi, mudroq sezgilarni uyg'oq, tirik tuyg'ularga aylantiruvchi, inson bolasini umid otliq g'irotda mindiruvchi benazir kuchlar bilan birikib, muayyan ma'naviy-ijtimoiy umumlashmalar, g'oyalarni tomoshabin xotirasiga muhrlash imkoniga ega bo'ladi.

“O‘zbek ilmi va o‘zbek filmi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Filmda estetik did masalasi, asarning estetikasi zaxa yegan bo'lmasligi zaruriydir.

“O‘zbek ilmi va o‘zbek filmi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Chinakam qo'shiq dunyoga kelmog'i uchun so'zlar ma'nan va ruhan rost bo'lmog'i, bir-biri bilan komil va odil uyg'unlik kasb etmog'i, bu uyg'unlik esa o'ziga favqulodda monand musiqiy ohangni topa bilmog'i kerak, undan qolganini ijrochi mahorati hal etadi. O'zbek qo'shiqchiligida bunday tugal asarlar juda ko'p, ular, hech shubhasiz, ming yillik an'analarini asrab kelayotgan boy qo'shiq san'atimiz xazinasini bezab kelmoqda.

“So‘z va soz” / Tilimizning tilla sandig‘i


Milliy qadriyatlar deyiladigan muhtasham va muntazam tizim silsilasida til favqulodda muhim o‘rin tutadi. Xalqning tiliga qilinadigan har qanday daxl yoki nopisandlik uning dunyolarga alishmaydigan ardoqli qadriyatiga zug‘um sifatida idrok etiladi va millat qalbida adoqsiz qadoqlar paydo qiladi. Til millatning borligi va birligini tayin va ta‘min etadigan betakror timsoldir.

“Tilimizning tumori”

YIL2836

YIL2836

Fil va tafakkur



YIL2836

Tafakkur va til hodisalari bir-biri bilan chambarchas, uzviy bog‘liq ekanligidan kelib chiqilsa, mustaqil, ijodiy tafakkur tarbiyasida ona tilining favqulodda muhim o‘rni aniq ko‘rinadi.

“Yonadigan nok” / Tilimizning tilla sandig‘i

Til va tafakkur bir-biri bilan shunchalik bog‘liqqi, ularning birisiz ikkinchisi mavjud bo‘lolmaydi. O‘sha V. Gumboldtdan boshlangan va bugun aksariyat tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan qarashlarga ko‘ra til tafakkurning qanday bo‘lishini tayin etadi, aytish mumkinki, inson dunyoni o‘z tili mantig‘idan kelib chiqib, ya’ni tili bilan idrok etadi, eshitadi va ko‘radi. Har bir xalqning, millatning o‘ziga xos, tiliga uyg‘un milliy tafakkur tarzi mavjud. Til va millat, demakki, xalqning dialektik birligi juda ham yaxlitdir. Til, ayniqsa, ona tili ta’limida bu birlikning muntazam idroki tarbiyasining zaruriyatini tushuntirish quyoshning borliqdagi ahamiyati haqida gapirishday ortiqcha bir ishdir. Ona tili ta’limida buni o‘qituvchi biror on unutmashligi shart.

“O‘qituvchi nutqi madaniyati” kitobidan

Tafakkur ham, tasavvur ham, hatto taxayyul ham tillarga ko‘ra farqli jihatlariga ega.

“Til va ta’lim muammolari”

Go‘zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlos-u ehtirom an‘anasi, ayniqsa, ko‘hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Shu donishmand Sharq bag‘rida bundan besh ming yillar burun dunyoga kelgan eng “keksa” muassasalardan bo‘lmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan

biri ham bolani to‘g‘ri, aniq gapirish va yozishga o‘rgatishdan iborat bo‘lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o‘sha mavqeini yo‘qotmay kelayotganligi har qanday jamiyatda til va nutq nufuzining nechog‘li muhtasham o‘rin tutishining shahodatidir.

“Yonadigan nok” / Tilimizning tilla sandig‘i


Dunyo degan bu qadim tilsimotning tuganmas sir-u sinoatlaridan voqif bo‘lmoqning bemo‘l va betakror imkoniyati sifatida odam bolasiga tafakkurday buyuk bir ne‘mat ato etilgan. Zotan, ulug‘ alloma bobomiz Alisher Navoiy ayni haqiqatni go‘zal bir shaklda mana bunday ifoda etganlar: “Ki har neni bilmish odamizod, Tafakkur birla qilmish odamizod”. Yana bir eski haqiqat shuki, insonning o‘zi ham ana shu ko‘hna dunyoning azaliy va abadiy, nodir va benazir bir unsuridar. Ana shu hazrati Inson, mana necha ming yillardirki, tafakkur qudrati bilan dunyoni ham, o‘zini ham anglab keladi, dunyoni ham, o‘zini ham kamolga eltish umidi bilan yashashdan charchamaydi.

“Yonadigan nok” / Tilimizning tilla sandig‘i

Til bebaho boylik, buyuk qadriyat milliy o‘zlikning asriy ildizlari sifatida, o‘zbek qavmining ona tili sifatida o‘zbekning milliy-ma‘naviy dunyosini charog‘on qilib tursa, davlat tili sifatida ko‘p millatli mamlakatimiz fuqarolari qalbiga bir davlatga, bir yurtga mansublik, birdamlik tuyg‘ularini joylaydi, ularni yagona davlat ramzi sanalmish bayroq, gerb, madhiya kabi muqaddas timsollar singari bir yurtning sadoqatli farzandlari o‘laroq birlashtiradi.

“Til va jamiyat tanosibi sinoatlari”

*Fil ilmi va idroki
masalalari*



Bizda tilshunos faqat tilshunos, adabiyotshunos faqat adabiyotshunos bo‘lib qolgan. Menimcha, bu noto‘g‘ri, chunki har ikki mutaxassisning ham o‘rganish obyekti, asosan, bitta, u ham bo‘lsa, TIL. Faqat ularning bu obyektga, ya‘ni tilga yondashuvlari ikki xil, xolos. Shunday ekan, tilshunos adabiy jarayonning tomir urishini, adabiyotshunos esa tilimizning taraqqiyot qonunlarini chuqur bilib borishi shart. Ana shunda juda ko‘plab foydali va zarur lingvopoetik tadqiqotlar yuzaga keladi.

“Biz suv ichgan buloqlar”

Grammatika va mantiq har qanday nutq tirikligining tayanchi, har qanday nutq sog‘lomligining zamini, bu ikki tushuncha va ularning metin qoidalari har qanday nutqni tutib turuvchi sinchlar silsilasidir.

“Til va ta‘lim muammolari”

Filologning so‘z inkishofi yo‘lidagi butun say-harakatlari, asosan, ikki maqsadni ko‘zda tutadi, ya‘ni birinchidan, yaxlit til daraxtining mohiyatini, bu daraxt soyasi ostidagi ruhiy orom tilsimini anglash va, ikkinchidan, shu tarzda jamiyat a‘zolariga tildan oqilona va ifoda talabiga tamomila uyg‘un holda foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish, ularda zarofatli so‘z sezgisini tarbiyalashdan iborat.

ziyouz.uz

Ko‘pincha, til estetikasi haqida gap ketganda, faqat muayyan yozuvchining tili atrofida fikr yuritiladi. Estetikani

faqat badiiy asarlar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash noto'g'ridir. Chunki til estetikasining asosi nutqning sifatiga, qandayligiga suyanadi. Jonli so'zlashuvda ham, ko'pincha, fikrning qanday ifodalanayotganligiga e'tibor beriladi. Ana shu e'tibor bilanoq til o'zining kommunikativ funksiyasi bilan birgalikda estetik funksiyasini ham namoyon qiladi. Demak, nafaqat badiiy asarda, balki undan tashqarida ham til o'zining estetik funksiyasi bilan ishtirok etishi mumkin.

Kirish / So'z estetikasi

Xalq tilining hududiy namunalari bo'lmish shevalar buni hoya nodir boylik, ular adabiy tilimizning asosiy boyish manbalaridan biridir. Shevalarga oid so'zlarni to'plash, chuqur o'rganish, lisoniy-tarixiy jihatdan tavsiflash til va xalqning murakkab tarixini tadqiq etishda muhim omillardan hisoblanadi.

“Tilshunos taqdiri” / Tilimizning tilla sandig'i

“Alifbo tartibidagi butun olam”ni yaratishning mushkulotlarini mutaxassislar yaxshi biladilar. Hatto “Agar biron kishini jazolash lozim bo'lsa, uni urish-so'kish shart emas, eng ma'quli, unga lug'at tuzdirish kerak” qabilidagi hazilomuz gap ham bejiz paydo bo'lmagan. O'zbek lug'atchiligi tarixida ana shunday “jazo”ni mo'tabar martaba va adoqsiz sharaf deb bilgan fidoyi allomalar mehnati mahsuli bo'lmish lug'atlar borki, ular kunimizda ham nafaqat o'zimizda, balki dunyo lug'atshunosligi fanida va lug'atchiligi amaliyotida ham keng e'tirof etib kelinmoqda.

“Tilimizning tilla sandig'i” / Tilimizning tilla sandig'i

Izohli lugʻatda faqat Oʻzbekistonda mavjud boʻlgan tushunchalarnigina ifodalovchi soʻzlar izohlansa, izohli lugʻatning mohiyati ishdan chiqadi. Qolaversa, bunday qilish, sodda qilib aytganda, toʻgʻridan toʻgʻri dunyobexabarlikka olib keladi.

“Tilimizning tilla sandigʻi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Eskirgan soʻzlarni tiklash tilimizning ming yillik boy xaziralaridagi muayyan qismlarni harakatga keltirish, ishga solish demakdir.

“Tilimizning tilla sandigʻi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Maʼlumki, xalq tili — tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo “andavalanmagan”, “randalanmagan” til. U oʻz goʻzalligini mutlaqo muntazam, qanday boʻlsa, shundayligicha asragan, ataylab pardoatlanmagan, “oʻsma-yu surma”, “upa-yu elik”lardan batamom xoli, mezon otligʻ qatʼiy qoidalar zanjiridan ozod, muayyan hududga mansub goh behad nozik, gohida mundayroq oʻziga xosliklarni, yaʼnikim shu til doirasidagi barcha shevalarni qamragan tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining aytish mumkinki, yagona koʻrkli va komil “farzandi”dir.

“Oʻzbekning oʻlmas soʻzi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Tadqiqotchi birinchi maqolasidayoq aytar soʻzini ayta bilishi kerak.

XI asrda turkiy soʻzlarning chang-chungini qoqib, muntazam mahorat va mislsiz mashaqqat bilan ularga ana shunday tillo sandiq yasagan, taʼbir joiz boʻlsa, butun olamni shu sirli sandiqqa solgan ulugʻ bobomiz Mahmud Qoshgʻariy oʻzbek va boshqa bir qancha xalqlar lugʻatchilik tarixining toʻridan joy olganligi bor gap.

“Tilimizning tilla sandigʻi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy soʻzlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan soʻzlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo boʻlishi bilan bogʻliq talqinlarda taqlidiy soʻzlar masalasiga ham alohida oʻrin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yoʻq emas.

“Oʻzbekning oʻlmas soʻzi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Turkiy soʻzning rangin va oydin olamini omon asrab, keyingi avlodlarga yetkazish maqsadida undagi maʼno gavharlarining changini qoqib, har soʻzga mukammal izohdan tumorlar taqib, “Devonu lugʻotit turk”day oʻlmas obidani yaratgan bobomiz Mahmud Qoshgʻariy tadqiq etgan tilni asrlar osha ne-ne allomalarimiz oʻrgangan, shu qutlugʻ ishga butun umrini baxshida etgan.

“Tilshunos taqdiri” / Tilimizning tilla sandigʻi

Til dahosi shu qadar buyuk va qudratliki, uning rivojida qatʼiy qonuniyat bor, uni hech kim buza olmaydi. Tilshunos undagi mavjud qonuniyatlarni ochishi, temir qoidalarining

magʻzini xolis chaqib berishi mumkin, xolos, yangi qonuniyatlar yaratib, uni tilga “yedira olmaydi”. Til nimani olish, nimani olmaslikni oʻzi biladi.

***“Til – Eshmat yoki Toshmatniki emas” /
Tilimizning tilla sandigʻi***

Til tamomila tirik bir voqelik boʻlgani uchun ham hamma zamonlarda oʻrganiladi, har davrning donishmandi tilning oʻsha davrdagi rivoji, holatini zamonasining aqliy-madaniy darajasiga mutlaqo muvofiq tarzda talqin va tadqiq etadi. Ana shu maʼnoda insoniyatning oʻzi qadar qadimiy boʻlgan til ilmi, xususan, oʻzbek tilshunosligi ildizlarining bichimlarini kalta oʻlchash gʻayrimantiqiy ekanligini taʼkidlamoq lozim.

“Tilshunos taqdiri” / Tilimizning tilla sandigʻi

Oʻzbek adabiy tili oʻzbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida mezonlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. Oʻzbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va oziqlanish manbai ham ayni shu xalq tilidir. Adabiy tilimizning tanti tirtgagi, sinoatli sarchashmasi qamrovi sarhad bilmas xalq tilidir. Bugungi oʻzbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda ifoda imkonlariga egaligi xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izohlanadi.

“Oʻzbekning oʻlmas soʻzi” / Tilimizning tilla sandigʻi

Qadim yurtimizda oltin soʻzi-yu oydin ovozi, soʻylamoqni sayramoqqa mindira bilish iqtidori bilan bulbulni ham lol qoldirgan, quvvai hofizasi, badihagoʻyligi, soʻzni huqqaboz kabi oʻynata olishi, nafaqat oʻynatishi, balki ezgin-ezgin

o'ylatishi bilan dong'i doston bo'lgan ne-ne baxshilar "Alpomish"ni kuylamagan. Aniqlanishicha, bu dostonning o'ttizdan ortiq varianti mavjud bo'lib, ularni juda ko'p nomdor baxshilar aytib kelganlar va aytib kelmoqdalar, ammo, taassufki, ularning aksariyati yozib olingan emas. Xalq orasida atoqli baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variant keng tarqalgan. Shu narsa haqiqatki, "Alpomish"ning hamma variantlarida ham xalq tilining o'sha rasoligi va ravonligi manaman deb turadi.

"O'zbekning o'lmas so'zi" / Tilimizning tilla sandig'i

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, "Alpomish" dostoni o'zbek xalq tilining xira tortmas ko'zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining jonli tarixi in'ikosidir.

"O'zbekning o'lmas so'zi" / Tilimizning tilla sandig'i

Fan doim o'sish-o'zgarishda bo'lgani kabi, uning vakili bo'lgan olimning olam haqidagi bilimlari ham o'zgarib chuqurlashib boradi. O'z navbatida, uning ongidagi o'zgarishlar ilmiy merosida ham o'z aksini topadi.

"Til va madaniyat" kitobidan

Azaldan ma'lumki, faqat va faqat ona tilinigina vositachi tilsiz o'rganiladi, u inson hayotidagi ilk til sifatida onadan, otadan muqaddas meros. Boshqa har qanday tilni o'rganishda, eng avvalo, ona tili yoki qaysidir bir til vositachi bo'ladi.

"Zamonaviy kadr va milliy qadr" / Ma'rifat manzillari

Lugʻatlar hashami bilan ayrimlarning ogʻzini ochib qoʻyish uchun emas, oson foydalanish uchun tuziladi.

“Oʻzbek tilining yashirin boyligi” / Til va madaniyat

Oʻzbek tilining boyligini qappaygan lugʻati emas, leksik boyligi va uning sifati belgilaydi. Bu boylikni nozik did bilan egallash va unga yondashish kerak. Shunda uning xazina eshigi keng ochiq boʻladi. Uning boyligi sirlarini bilmagan va unda fikrni bera olmagan kishi oynadan oʻpkalamasin.

“Oʻzbek tilining yashirin boyligi” / Til va madaniyat

Imkoniyati boʻgʻilgan tilning boyish imkoniyati ham boʻgʻilgan boʻladi.

“Til va madaniyat” kitobidan

Doʻstlikday muqaddas tushuncha qalb qatida boʻladi. Til esa ana shu qalbning oynasi. Har kuni, har soatda bu oynaga qarab turish kishilar oʻrtasidagi doʻstlik rishtalarini mustahkamlaydi.

“Soʻz va unga muhabbat” / Til va madaniyat

Chetdan soʻz oʻzlashtiraverish tildagi soʻzlar tuzilishi va maʼno berishi qonuniyatlari izchilligini buzadi. Unda til boyligini oʻrganish soʻz oʻzagi va qoʻshimchasi munosabatini aqlan idrok qilish hisobiga emas, balki soʻzlarni qorilarcha yodlash va ular ifodasini lugʻatlarni titkilab oʻrganishga asoslanadi. Bunday til naq doʻzaxning oʻzidir.

“Oʻzbek tilining yashirin boyligi” / Til va madaniyat

Har qanday til muomala quroli bo'lgandan keyin, u muomala jarayonida qiyinchilik tug'dirmasin.

“O‘zbek tilining yashirin boyligi” / Til va madaniyat

O‘zbek tili turkiy tillarning eng yiriklaridan biri sifatida Yer yuzidagi qadimgi tillardan hisoblanadi. Uning benihoya boy, rangin va go‘zal yozma an‘analari bir necha yuz yilliklar bilan o‘lchanadi. Bu tilning yozma adabiy til sifatidagi asoslari so‘z mulkining sultoni, ulkan mutafakkir Alisher Navoiy tomonidan XV asrda yaratilgan. Ayni shu tilda bitilgan behisob badiiy va aqliy tafakkur durdonalari bugun jahon madaniyati va fani xazinasini bezab turganligi hech kimga sir emas.

“Til va madaniyat” kitobidan

Tillarda boshqasiga tarjima qilib bo‘lmaydigan tushunchalar mavjud. Sababi shu tushunchalar shu millatning o‘zigagina xos bo‘lgan, o‘zidagina bor va nomi ham shu tilda mavjud. Ularni tarjima qilish kerak bo‘lsa, faqatgina tavsifiy vosita yoki iboralar hamda tasvirlash yo‘li bilan tarjima qilish mumkin.

“O‘zbek tili – xalq ruhining ko‘zgusi”

Grammatika va mantiqni bilgan, his qilgan odamgina to‘g‘ri va solim nutq tuzishi mumkin, aks holda ayrim “mutaxassislar” kabi boshqa til qolipidagi “til tashuvchilari” qabilidagi birikmalarni ishlataveradi, bunday ifodaning o‘zbekchasi “til egasi” yoki “til sohibi” tarzida bo‘lishi lozimligi uning xayoliga ham kelmaydi.

“Til va ta’lim” muammolari

Har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan oliy tushunchalar, ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi.

***"Avlod-u ajdodni allalagan til" /
Tilimizning tilla sandig'i***

Tilshunoslik, falsafa yoki yana boshqa ilmlarda qanday talqin qilinishiga qaramasdan, oldin til, undan keyin tafakkur yoki oldin tafakkur, keyin til paydo bo'lgan deb bo'lmaydi, ularning har ikkisi birgalikda, qanchalik ibtidoiy bo'lmasin, bir paytda paydo bo'lganligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Antropotsentrik tilshunoslikdagi til va tafakkurning bog'liqligi borasidagi yetakchi g'oyalar ham shuni ko'rsatadi.

"O'zbek tili lug'at boyligining rivojidagi jarayonlar"

Tilning paydo bo'lishidan tortib, uning tarixiy taraqqiyoti-yu yashash tarzigacha, istiqomat sharoitidan tortib, evrilish shamoyillarigacha, umuman, bu yaxlit benazir hodisaning mohiyati va tabiatini osonlik bilan inkishof qilish mushkul ish. Zotan, inson tili benihoya murakkab, ko'p tomonlama, o'ziga xos muhtasham va muntazam hodisadirki, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilishga ko'pda inson aqli ojizlik qiladi.

"Til va jamiyat tanosibi sinoatlari"

Til va unda ifodalanadigan mazmun mutlaqo muxtor emas. Til va mazmun o'rtasidagi munosabat ikki tomonlamadir, bu munosabatni inson tanasi va tanani yopib turgan kiyim o'rtasidagi munosabatga o'xshatib bo'lmaydi. Har qanday fikr, mazmunning shakllanishida til, albatta, ishtirok etadi. Hatto ayrim tilshunoslar til ishtirokisiz biron-bir murakkab aqliy faoliyatning imkonsiz ekaniga, tilning hayratlanarli mohiyati, avvalo, ana shunda ko'rinishiga urg'u beradilar. Qisqasi, har bir til o'ziga xos tafakkur, o'ziga xos madaniyat, dunyoni o'ziga xos ko'rish tarzidir, shuning uchun bashariyat tarixida har bir xalq o'z tilini ana shunday ko'rish va har qanday begona tazyiqlardan qo'rish maqsadida ona tilini takomil toptirishning payidan bo'lgan.

“Til va jamiyat tanosibi sinoatlari”

Amerikalik olimning quyidagi gaplarida hech qachon eskirmaydigan cho'ng haqiqat o'z tajassumini topgan: “Kelajakda bir tilda – u ingliz tili bo'ladimi, nemis yoki rus tili bo'ladimi – gapiradigan insoniyatni tasavvur qiladiganlar, shunga ishonadiganlar insoniyat tafakkuri taraqqiyotiga ulkan zarar keltirishga qodir bo'lgan narsani ideal deb bilganlari uchun qattiq adashadilar”. Zotan, begona til unsurlarining muayyan bir tilga keragidan ortiq va bu til qonuniyatlariga nouyg'un tarzidagi bosqini shu tildagi milliy tafakkur muvozanatini muallaqlashtirishi dunyo tarixi saboqlaridan ma'lum.

“Til va jamiyat tanosibi sinoatlari”

Tilshunoslik yer yuzidagi qanchalik keksa ilm bo'lmasin, hali hamon izlaganini topib bo'lganicha yo'q. Odam bor ekan, uning takomil-u taraqqiyoti muntazam ekan, til ilmi ham intiho bilmaydi, til tilsimi huzuridagi hayrat esa, ayniqsa, tilshunosni g'ayrat va harakatga chorlab turaveradi.

Muqaddima / Til tilsimi tadqiqi

Har qanday fanni o'rganish, o'zlashtirish uchun uning alifbosidan – terminologiyasidan xabardorlik zarur bo'ladi. Ma'lumki, fanning katta-kichik asosiy tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi, terminlar har qanday fan tilining asosini tashkil etishi haqidagi qoida bugun aksioma maqomini olib bo'lgan.

“Fan tili va til fani” / Til tilsimi tadqiqi

Real borliq va ruhiy xilqat hodisalarning mag'z-u mohiyati, qat'iy qonuniyatlarini inkishof qilishga urinish, bu murakkab yumushdan huzur qilish odam bolasining azaliy va abadiy faoliyatidir. Ana shu faoliyat bois to'plagan tajribalariga suyanib, u dunyoni ham o'zini ham o'zgartirib boradi, tabiatning shafqatsiz mushkulotlaridan omon qolishining hadislarini topadi, o'zi kabilarning qavm o'laroq birlashib yashash tuyg'ularini tarbiyalaydi, shu tariqa tadrijiy takomil deyiladigan tamaddunning mashaqqatli pillapoyalaridan yuksalib boradi. Bashariyatning tafakur va taxayyul tarixida qiyossiz boylik sifatida jamlangan va jamlanadigan mazkur tajribalar “fan, ilm” nomi bilan umumlashtiriladi.

“Fan tili va til fani” / Til tilsimi tadqiqi

Til dunyoni ilmiy bilishning, ilmiy g'oya va qoidalarini qayd qilishning asosiy quroli, shuning uchun ham muayyan fanning taraqqiyotini bu fan yaratilgan tabiiy tilning taraqqiyotidan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi.

“Fan tili va til fani” / Til tilsimi tadqiqi

Dunyoni bilishday bu intihosiz jarayonlarda tolmas va tirik qurol bo'lmish til tinimsiz qayralib, mukammallashib, boyib boradi. Shunday ekan, tilni odamdan, uning tug'ma “dardi” bo'lgan bilishdan ajratib o'rganib bo'lmashligi tabiiy.

“Termin, obrazli so'z va metafora” / Til tilsimi tadqiqi

Odamzod paydo bo'libdiki, o'zining, o'zi kabilarning va tashqi dunyoning sinoatlarini o'rganish bilan mashg'ul. Azaldan murakkab va muntazam bu bilish jarayonida sezgi, idrok va aql degan quvvatlar harakatda bo'ladi, bu quvvatlarning joni esa tildir.

“Termin, obrazli so'z va metafora” / Til tilsimi tadqiqi

Metafora dunyoni bilishning eng qudratli qurollaridan biri ekan, fan tili bu hodisaning, bu azaliy kognitiv mexanizmning qonuniy istiqomatgo'idir.

“Termin, obrazli so'z va metafora” / Til tilsimi tadqiqi

Ilmiy matnni, odatda, terminlarsiz, muayyan ilmiy sohaga mansub terminlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har qanday kishiga, xususan, nomutaxassisga ham besh qo'lday

ma'lumki, terminning o'z uyi, o'lan to'shagi ilmiy matndir, termin aynan ilmiy matnda o'zining bor bo'yini, butun mohiyatini, unga ibtidodan maxsus bo'lgan xususiyat va imkoniyatlarini baralla namoyon etadi.

"Ilmiy matnda termin tanosibi va takomili"

Ilmiy matn ilmiy axborot, ilmiy ma'lumotni ifodalash shaklidir, shuning uchun ham u ilmiy faoliyatning mahsuli hisoblanadi. Ammo shuni ham ta'kidlamoq joizki, ilmiy matnda ilmiy faoliyat jarayonining faqat natijasigina emas, balki mazkur aqliy-mantiqiy, kognitiv jarayonning ibtidosidan intihosigacha – ayni natijani qo'lga kiritgungacha bo'lgan murakkab va muntazam jarayonning barcha bosqichlari o'z aksini topadi.

"Ilmiy matnda termin tanosibi va takomili"

Besh qo'lday ma'lumki, har qanday tabiiy til milliy-mental mohiyatga ega, agar shunday mohiyatdan mosuvo bo'lsa, unday til tabiiy emas, balki sun'iy (masalan, esperanto tili) tildir. Har qanday tabiiy til faqat kommunikativ (aloqa) vazifanigina emas, balki milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, kreativ, akkumulyativ, aksiologik, estetik, emotiv kabi xilma-xil vazifalarni umrbod yelkasiga olgan holda dunyoga kelgan, bu vazifalarning harakati insonning milliy-ruhiy va aqliy-shuriy sajiyasini tirik tutib turadi. Shuning uchun ham til millat mavjudligining, millat esa til mavjudligining zimni zaminidir.

Til: ilm, ta'lim va targ'ib

Tilday murakkab hodisani mukammal o'rganishning eng samarali yo'llarini butun dunyo ilm ahli tomonidan izlanishi g'oyat ijobiy va ezgu harakatlardir. Tabiiyki, bu hodisani faqat bir paradigma yoki yo'nalish doirasidagina o'rganish bilan uning mohiyatiga yetish mushkul.


“Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab”

Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo'lib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg'undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir. O'zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so'z gavharlari zaxirasiga sohib tildir.

“Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko'zgusi”

Soʻz va badiiyat

YIL2836



YIL2836

Badiiy asar tilidagi noʻnoqlikni hech narsa – koʻtarilgan mavzuning jamiyat uchun dolzarbligi ham, muallifning yoshi yoki mavqei ham mutlaqo berkitolmaydi.

“Har soʻzning oʻz oʻrni bor” / Til va madaniyat

Til jihatidan nomukammal badiiy asar mavzu va gʻoya jihatidan mukamallik daʼvo qilishi yoki mavzu va gʻoya jihatidan nomukammal asar til jihatidan komillik daʼvo qilishi haqiqatga mutlaqo ziddir. Ana shuning uchun ham badiiy soʻzning boy va qadim tarixidan to hozirgi kunga qadar til mahorati masalasi oqil va odil soʻzchilar eʼtiboridan chetda qolgan emas.

“Soʻz va kuzatuvchanlik” / Til va madaniyat

Ijodkorning oʻtkir koʻzi va muvofiq, muntazam soʻzi birlashgandagina magʻzi toʻq oʻxshatish yuzaga keladi. Ana shu birlikkina haqqoniy tasvirni taʼmin etadi.

“Soʻz va kuzatuvchanlik” / Til va madaniyat

Tilimiz ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va beqiyos darajada goʻzaldir. Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni oʻqirkanmiz, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini bilan tanisharkanmiz yoki turli soʻz oʻyinlarini, oʻtkir va nozik askiyalarni tinglarkanmiz, tilimizning turfa tovlanishlaridan, goʻzalligidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz.

Kirish / Soʻz estetikasi

Badiiy, xususan, she'riy nutqda har bir so'z boshqa har qanday kontekstdagidan salmoqli va nafisroq bo'ladi. She'riyatda so'zning vazifasi ortadi, so'z estetik butunlik sifatidagi asarning uzviy qismiga aylanadi. Shoir o'z o'rnida qo'llagan, she'rda munosib joyini topa olgan so'zgina estetik imkoniyatini to'laligicha namoyon etmog'i mumkin. O'rsiz qo'llangan birgina so'z, hatto birgina qo'shimcha yoki tovush ham asarni chippakka chiqarishi tayin.

“So'zni qayliq saylagandek, sevib sayla”

Haqiqiy she'rda har bir so'z, qo'shimcha, tinish belgisi muayyan, muntazam estetik qimmatga ega.

“So'zni qayliq saylagandek, sevib sayla”

Yorqin va komil badiiy iste'dod asosida hamisha teran va muntazam kuzatuvchanlik, turfa olamning kamalak ranglarini zakiylik bilan ko'ra olish va ularning tirikligiga, tabiiyligiga putur yetkazmagan holda ko'rsata olish yotadi. Zero, kuzatuvchanlik va mukammal his qilish, aslida, behad nozik va nodir bir malaka bo'lib, u har qanday badiiy iste'dod takomilining ibtidosidir.

***“Oybekning o'xshashsiz o'xshatishlari” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Tildagi andak saktalik fikrdagi muayyan nomukammallikning yoki, aksincha, fikrdagi salgina noaniqlik til ko'nikmalaridagi nochorlikning qonuniy natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

“So'z va kuzatuvchanlik” / Til va madaniyat

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi tili tirikligini, undagi an’analarning bardavomligini, bu tilning rasolik va badiiy bo‘yoqlarga boylik bobidagi barkamolligini baralla ko‘z-ko‘z qilib toliqmagan, tilimizning azaliy tarovatini salomat saqlab, asrlardan asrlarga opichlab olib o‘tib kelayotgan, ming yillik faxr-u iftixorga shoyon, yoniq yodgorlikkim, uning buyukligini dunyo to‘lasicha e’tirof etib, biz bilan birga qamishdan bel bog‘lab to‘ylashgani yurtimiz mustaqilligiga musallam bir ishdir. Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida hali ko‘p avlodlar qalbiga munavvarlik olib kiradi.

“O‘zbekning o‘lmas so‘zi” / Tilimizning tilla sandig‘i

O‘zbek adabiy tilining shakllanishiga va yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tarilishiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining shoh asari – “Xamsa”ni turkiy tilda yaratib, bu tilning cheksiz imkoniyati va yuksak qudratini butun yaxlitligicha namoyish qildi. Bu ma’noda “Xamsa”ni turkiy tilning badiiy-estetik imkoniyatlarini mukammal va muntazam aks ettiruvchi tiniq va toza ko‘zgu deyish mumkin. Garchi bu shoh asar she’riy yo‘lda yaratilgan bo‘lsa-da, unda go‘zal va salmoqli badiiy nasrning haqiqiy namunalari kuzatish mumkin. Dostonlardagi boblarning nasriy sarlavhalari ana shunday dilbar namunalardir. Bu nasriy sarlavhalar badiiy til nuqtayi nazaridan shu qadar yetuk va mukammalki, hatto ularning o‘zinigina lingvopoetik tahlil qilish asosida ham Navoiyning mislsiz badiiy mahorati haqida fikr yuritish mumkin.

“Muxtasar va ko‘rkam bayon” / Tilimizning tilla sandig‘i

Obyektiv hayot go‘zalliklarini yuksak pafos bilan kuylagan Navoiy uchun yo‘qlik — shabiston, borliq esa gulshan. Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi ulkan zidlikni Navoiy mukammal, butun dahshati bilan ko‘ra olgan va o‘z asarlarida uning tasvirini qayta-qayta chizib bergan.

“Muxtasar va ko‘rkam bayon” / Tilimizning tilla sandig‘i

Oybek she‘riyatida betakror o‘xshatishlar o‘quvchi tasavvurini shoshirib, hayratini oshiradi. Ta’kidlash lozimki, bu o‘xshatishlarning har biri til tilsimini afsungari, tabiatning iddaosiz oshig‘i bo‘lgan Oybekning kuzatuvchanligiga, tabiat va insonning murakkab hayotini ipidan ignasigacha, butun ikirchikirlarigacha ko‘ra va ko‘rsata olishiga, borliqni o‘ziga xos yo‘sinda, “oybekona” idrok qilishiga xolis va xarakterli dalildir. Chunki o‘xshatishlar she‘riyatda xilma-xil maqsadlar bilan qo‘llansa-da, ularning sifati, ayni maqsadlarga qay darajada bo‘ysundirilishi, qisqasi, ularning poetik mazmun darajasi, badiiy salmog‘i shoirning kuzatuvchanligiga, poetik idrokiga bog‘liq.

***“Oybekning o‘xshashsiz o‘xshatishlari” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

“O‘tkan kunlar”da asrlar osha qayralgan tilimizning butun salohiyati, tugal tarovati o‘zining mukammal tarzidagi aksini topgan. Abdulla Qodiriy tilni, uning katta-kichik har bir unsurini benihoya teran idrok etadi, har bir unurning tabiati, ochiq va pinhoniy ifoda imkoniyatlarini aniq tasavvur etadi. U hatto ayrim bir tovushning ham ifoda imkonlariga favqulodda hushyorlik bilan qaraydi. Esingizda bo‘lsa, u “Mehrobdan

chayon” romanida turkiy tilimizdagi qadim “ng” tovushi ifodasi uchun alohida belgi yo‘qligidan yozg‘irib, mana bunday izoh berishni zaruriyat deb bilgan: “Xudoyor qipchoqlar ichida o‘sgani uchun tili o‘zbekchadir. *Enalaring* so‘zidagi “ng” harfini “ng” ravishda qalin so‘zlaydir. Bu kungi Farg‘ona o‘zbeklarida ham (ayniqsa, qishloqilarda) yumshoq “ng” o‘rnida “ng” ishlatish ko‘p eshutiladir. Hozirgi isloh qilingan harfimizda bu qalin “ng” ning maxsus shakli yo‘qdir. Yozg‘anda (n - g‘) harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o‘qug‘anda har kim buni o‘z maxrajidan chiqarolmas, yanglish o‘qur. Manimcha, alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan, mashhurlari: *zang, pang, lang, darang, shang‘i, to‘ng‘illamoq, to‘ng, to‘ng‘uch, ang‘iz, ting* va boshqalar...” Shu birgina izohning o‘ziyoq Abdulla Qodiriyning tilimiz tabiatini nechog‘lik nozik his etganligidan shahodat beradi.

***“Muhabbatga qo‘yilgan haykal” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Qodiriyning so‘zga bo‘lgan samimiyati va Qodiriy so‘zining o‘quvchiga samimiyati “O‘tkan kunlar”ning ilk sahifasidan to so‘nggi sahifasigacha ufurib turadi. U so‘zni muayyan ifoda uchun qistamaydi, u biladiki, “bo‘ynidan boylangan it ovga yaramaydi”. “O‘tkan kunlar”dagi so‘zlar mutlaqo ixtiyoriy ravishda favqulodda ma’nolar ifodachisiga aylanadilar.

***“Muhabbatga qo‘yilgan haykal” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Erk fidoyisi bo'lgan Abdulla Qodiriy tom ishonch bilan ishonadiki, faqat erk buyuk kuchdir, shuning uchun u so'zlarga o'z maqsadiga uyg'un temir kishan emas, balki o'zi yetolmagan erkni beradi. Voqealar rivojidadagi shiddat, goh yorug', gohi qorong'i taqdir o'yinlari-yu qahramonlar qalbida tinimsiz potragan pokiza ishq va erk tug'yonlarigina emas, balki so'z samimiyati bizni butkul mahliyo etadi.

***“Muhabbatga qo'yilgan haykal” /
Tilimizning tilla sandig'i***

Har bir sintaktik tizimdagi so'zning ma'nan va ruhan hurligi yozuvchi tilining samimiyatini ta'min etadi. Sohri so'zchi har bir so'zning botiniy erkini idrok etish bilan uning zamiridagi imkonlarini ham zuhur ettira oladi.

***“Muhabbatga qo'yilgan haykal” /
Tilimizning tilla sandig'i***

So'zni ham so'ylatgan, ham o'ylatgan va shuning barobarida ming bir ishva bilan hech bir iddaosiz o'ynatgan, tilning tafakkur va taxayyul bobidagi imkoniyatlariga favqulodda ko'lam va qamrov baxsh etib, uni betakror badiiyat deyiladigan arshi a'loga ko'tarmoqday muntazam mashaqqatdan hamisha huzur va hayrat tuygan, butun hayotining mazmunini ana shu hayrat va huzurni boshqalar bilan bo'lishmoq, baham ko'rmoqdan iborat deb bilgan ijodkorning umri boqiydir.

“So'z shayxining mo'jizalari” / Tilimizning tilla sandig'i

Soʻz sanʼatkori muayyan bir tilda dunyoni badiiy obrazlar orqali qayta gavdalandiradi, ammo dunyoni bunday badiiy qayta gavdalandirish barcha ijodkorlarda aynan bir xil, aynan bir yoʻsinda boʻladigan boʻlsa, buning oddiy taqlidchilikdan farqi qolmaydi. Shuning uchun ham muayyan bir tilda ijod qiladigan ikki ijodkorning dunyoni koʻrishi, eshitishi va badiiy idrok qilishida oʻziga xos farq mavjud boʻlishi lozimligi barkamol badiiyatning azaliy talabidir. Zotan, ana shu farq ijodkor mahorati, uning til va uslubdagi ustaligi, oʻziga xosligi tarozisining shayini boʻlib keladi. Tabiiyki, dunyoni oʻziga xos koʻrish, eshitish va badiiy idrok etish, eng avvalo, badiiy tilda zuhur etadi.

“Soʻz shayxining moʻjizalari” / Tilimizning tilla sandigʻi

Oʻzbek tili oʻzbek xalqining siyrat-u suvratini, tafakkur va taxayyul olamini, oʻtmish-u bugunini boricha aks ettiradigan va muhimi, shu tilning oʻzi vositasida hamda “oʻz qoʻli” bilan darj qilingan xolis qiyofasidir. Bu qiyofa xalqimizning ming yillik lisoniy-tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida, betakror madaniy va aqliy, adabiy-badiiy durdonalarida boʻy koʻrsatib turibdi. Bu qiyofa parvarish-u muhofazaga, eʼzoz-u ehtiromga, koʻz qorachigʻidek asramoqqa, yanada kamolot sari eltmoqqa shoyon muhtasham boylikdir.

“Til va taʼlim muammolari”

Tom maʼnodagi soʻz sanʼatkori, oʻzbek hikoyanavislarining sardori Abdulla Qahhorning tilga munosabati barcha ijodkorlar uchun ulkan ibrat maktabi ekanligi hech kimga qorongʻi emas. Uning oʻtkir hikoyalarini, yirik nasriy asarlarini, mahorat bilan

qilingan badiiy tarjimalarini, badiiyat va til haqidagi katta-kichik maqola va qaydlarini huzur bilan o‘qir ekanmiz, ana shu tuganmas ibrat maktabining zukko o‘quvchilari sifatida ham faxr, ham mas’uliyat hissini tuyamiz. A.Qahhor qalamiga mansub har qanday asarni o‘qib chiqqan kitobxon – u xoh adabiyotshunos yoki tilshunos bo‘lsin, xoh oddiy o‘quvchi bo‘lsin – so‘zning badiiy va lisoniy imkoniyatlaridan hayratga tushadi, oddiy, avvaldan tanish bo‘lgan shunchaki so‘zlar uning nazarida noziklashganday, ma’nan kengayib, kattalashib ketganday tuyuladi. So‘zlarni “jumla” deb ataladigan qat’iy qatorga bu qadar muvofiq va mutlaq o‘rnatib tizish mumkin ekanligiga qoyil qoladi.


***“Abdulla Qahhorning zarofatli so‘zi” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

Gaplarning lisoniy va mantiqiy bog‘lanishi A.Qahhor hikoyalarida benihoya raso, bir gap o‘zidan keyingi gapni, albatta, mazmuniy-mantiqiy jihatdan qat’iy taqozo etib turadi. Bu qat’iy bog‘lanish esa hikoyadagi voqea va aytilmoqchi bo‘lgan g‘oyaga mutlaqo uyg‘un bo‘lib tushadi, hikoyadagi umumiy intonatsiyaning, biror darajada bo‘lsin, susayishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ana shular uchun bo‘lsa kerak, Abdulla Qahhorning benazir hikoyalarini hatto xuddi she’riy asar kabi to‘laligicha yod olish mumkin.

***“Abdulla Qahhorning zarofatli so‘zi” /
Tilimizning tilla sandig‘i***

YIL2836

*Hozuv — tilning
libosi*



YIL2836

Yozuv insoniyatning buyuk yutug'i, tengsiz kashfiyotidir. Avlodlarning o'z ajdodlari kim ekanliklarini anglamoq saodatiga musharraf etguvchi vositalarning eng asosiylaridan biri ham shu yozuvdir. Shuning uchun ham u yoki bu yozuvni yaxshiy boshqasini yomon deb aytish aql doirasiga kirmaydi.

“Tilimizning ko‘rkli libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Boy va ulkan o'tmish madaniyatimiz, tnnimsiz tariximiz haqidagi bugungi ustuvor tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat va faqat yozuv tufaylidir. Umuman, yozuvning beqiyos ahamiyati, uning kishilik aloqasidagi o'rning naqadar katta ekanligi bugun barcha uchun ravshan haqiqatdir.

Til va yozuv

Kishining libosi ko'rkli va o'ziga yarashikli bo'lmog'i lozim. O'ziga yarashmagan, bichimi to'g'ri kelmagan libos, har qancha qimmatbaho bo'lmasin, insonni ko'rsiz va g'arib qilib ko'rsatadi, bunday kiyim odamning raso va go'zal jismiga soya soladi. Shuning uchun ham fozil va komil kishilar o'zlariga muvofiq kiyimlarni tanlay biladilar.

“Tilimizning ko‘rkli libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Yozuv tilning libosidir. Har bir tilning yozuvi uning o'ziga favqulodda mos va muvofiq bo'lishi kerak. Shundagina yozuv tilning tabiiy va tarixiy taraqqiyotiga xalaqit bermaydi, tilning tugal tozaligi-yu oydin ohangdorligiga putur yetkazmaydi.

“Tilimizning ko‘rkli libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Yer yuzidagi har bir yozuv o'z o'rnida ma'qul, har bir yozuv muayyan tilning tovush qurilishi uchun muvofiq keladi. Kingadir juda ham yarashgan libos boshqa birovga mutlaqo yarashmasligi tabiiy. Yozuv ham shunga o'xshash, bir til uchun o'ta muvofiq kelgan yozuv boshqa tilga mos kelmasligi mumkin. Zotan, muayyan yozuv dastlab paydo bo'lishidayoq muayyan bir tilning tovush qurilishi xususiyatlariga asoslangan.

“Tilimizning ko‘rkli libosi” / Tilimizning tilla sandig‘i

Dunyodagi alfavitlarning hammasida ham harflar soni tegishli tildagi tovushlar (fonemalar) sonidan sezilarli darajada kam. Tabiiyki, bu yozuvni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham alfavitlarning asosiy tendensiyasi undagi harflar sonini ko'paytirish emas.

Til va yozuv

Kishilik jamiyati tarixi qo'lga kiritgan bilim-u tajribalar, inson zakosi yaratgan nodir kashfiyotlar, bashariyatning olis, ammo oydin badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan so'z san'ati durdonalari, fozil-u fuzalo, aziz-u avliyolarning haq yo'lidagi, odam bolasini qobillik, komillik, odillik, muslimlik eshiklarini ochishga undash yo'lidagi tabarruk kalomlari, jamiyatlar tarixining nurli va nursiz sahifalari va shu kabi axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga, xalqlardan xalqlarga, qit'alardan qit'alarga bevosita yozuv orqali yetib boradi.

“O‘zbek adabiy tili: alifbo va imlo muammolari” /


Til tilsimi tadqiqi

O'zbek tilining qadimdan yozuv an'analariga ega ekanligi ma'lum, bu tilda yaratilgan bemisl aql va bepoyon badiiyat xilma-xil durdonalari hamda ulardagi uslub jilolari, daqiq mazmuniyatga mutanosib ifodaviy o'ziga xosliklar ko'plarning havasini keltirgan. Rasmiy, ilmiy, ayniqsa, badiiy muloqot maqsadlarini ortmoqlagan nutq namunalaridagi teran tafakkur va hassos taxayyul, bilan chiyratilgan ifodalar tilimizda asrlar davomida pishib-puxtalashib kelgan uslublar mahsullaridir.

“Ilmiy matnda qoliplashgan ifodalar”

YIL2836

*Fil ta'limi va
muallim*



YIL2836

Qaysi fanni o‘qitishdan qat’i nazar, o‘qituvchining asosiy quroli, ta’bir joiz bo‘lsa, ketmoni uning nutqidir.

“Til va ta’lim” / Ma’rifat manzillari

O‘zbek tiliga chinakam muhabbat qo‘yish uchun g‘ayrat va jur‘at bilan uning sehrli olamiga kirish kerak. Bu olamdagi eng ajoyib va g‘aroyib xazina esa so‘z boyligidir. Ana shu xazina qanchalik yaxshi egallansa, til burrolashib, zehn o‘tkirlashib, fikr tiniqlashib boraveradi. Ana shu tariqa bolada sog‘lom til tuyg‘usi, nozik so‘z sezgisi, go‘zal va ta’sirli nutq zavqi shakllanadi va asta-sekin kamol topib boradi.

“Bebaho va boqiy boyligimiz” / So‘z sandiqchasi

Adabiyot darslarining bosh maqsadlaridan biri o‘quvchini badiiyat, so‘z san’ati, go‘zallik bilan oshno qilish, badiiy tafakkur olamiga olib kirish, unda badiiy so‘z sezgisi va zavqini uyg‘otishdan iborat.

“Madaniyat va saodat darvozasi” / Ma’rifat manzillari

...badiiy matn o‘quvchi idrokini nazarda tutib tanlanar ekan, uning tiliga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq. Asar har qancha yuksak badiiyat namunasi bo‘lmasin, agar o‘quvchi har ikki-uch so‘zdan birida qo‘shimcha izohga ehtiyoj sezaversa, bunday asarni o‘qish o‘quvchi uchun huzurga aylanmaydi, bir baytdagi o‘nta so‘zdan beshtasini yodlash va uning ma’nosini sahifa ostidagi izohidan bilib olib, xotirada saqlash oson emas, bu ish bolani adabiyotdan, eng kami, sovitishi mumkin.

Til zavqi, madaniy nutq sezgisi va soʻz sevgisi borasidagi ilk tarbiya oilada, bola bir-ikki soʻzni “chugʻurlash” baxtidan sarmast boʻlgan paytdanoq boshlanishi kerak.

“Madaniy nutq tarbiyasi” / Maʼrifat manzillari

Ona tili darsligidagi har bir jumla har jihatdan raso boʻlishi, darsda oʻqituvchi tomonidan keltiriladigan har qanday misol “Ahmad keldi, Rahmat ketdi” qabilida quruq va shirasiz emas, balki oʻquvchi shuurini yoritadigan goʻzal, nutqning barcha kommunikativ sifatlarini oʻzida mujassam etgan boʻlishi zarur.

“Taʼlim va muallim” / Maʼrifat manzillari

Bugun xorijiy tilni bilish, u ingliz tili boʻladimi, rus yoki yapon tili boʻladimi, xitoy yoxud yana boshqa til boʻladimi, baribir, butun dunyoda bir zaruriyatga aylanib boʻlgan, bu zaruriyat anglab yetilgan. Eng muhimi shuki, begona tilni milliy oʻzlikdan begonlashib, oʻzlikni boy berib emas, balki oʻzlikda sobitlashib, milliy mentallikda turgʻunlashib oʻrganish aqlning ishidir. Buning mutlaq birlamchi, favqulodda mustahkam omili ona tili tuygʻusi, ona soʻz sezgisining sogʻlomligi va balogʻatidir. Ana shunday sogʻlomlik va balogʻat har qanday ona tili taʼlimining muntazam maqsad-u muddaosi boʻlmogʻi lozim.

Til: ilm, taʼlim va targʻib

Odam oʻz soʻzi va amaliga, eng avvalo, oʻzi ishonmogʻi kerak. Shunda uning soʻzi boshqalar nazdida maʼno kasb etadi.

ziyouz.uz

Bolalarimizning mustaqil, ijodiy tafakkurini o‘stirishda ona tili favqulodda hal qiluvchi omildir. Har qanday malaka va ko‘nikma bolalikdan shakllanadi. Ayniqsa, ijodiy tafakkur malakasining zaminiga aynan bolalikdan g‘isht qo‘yilmas ekan, keyingi urinishlar aslo samara bermasligi tayin. Shuning uchun ham bu borada ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining zimmasidagi mas’uliyat benihoya ulkan. Ular ona tilini o‘qitishning xilma-xil usul va vositalarini izlab topishlari, tinimsiz izlanishlari, bolani tilday sehrli olamga tazyiq bilan emas, balki uning murg‘ak shuuridagi mudroq ishtiyoqni uyg‘otib olib kirishlari zarur. Ona tilining raso qonuniyatlaridan xabardorlik, bu qonun-qoidalaridan o‘zini zo‘riqtirmasdan foydalana bilish tafakkurning emin-erkin harakati, mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratadi.

“Yonadigan nok” Tilimizning tilla sandig‘i

Hayratlanarlisi shundaki, maktabda nutqni, uning grammatikasini o‘rgatamiz, ammo fikrning, tafakkurning asosi bo‘lmish mantiqni o‘rgatmaymiz. Holbuki, til va tafakkur chambarchas bog‘liq, mantiq ilmisiz haqiqiy ijodiy tafakkur, go‘zal va aniq nutq bo‘lishi mahol. Ikki ma’lum fikrdan uchinchi bir yangi fikrni mustaqil holatda keltirib chiqarish va uni maromiga yetkazib tilda ifodalay olish uchun mantiq qoidalaridan boxabarlik zarur.

***“Nutq madaniyati va boshqa fanlar” /
O‘qituvchi nutqi mdaniyati***

Shaxsning nutq madaniyati jamiyat umumiy madaniyatining o‘ziga xos bir uzviy qismidir. Shunday ekan, nutq madaniyati masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, yosh avlod nutqi

madaniyatini o‘stirish borasida metodik ishlarni kuchaytirish, tilimizning beqiyos ifoda imkonlarini ommabop tilda ko‘rsatib beradigan risolalar yaratish maqsadga muvofiq.

“Borligimiz va birligimiz ramzi”

O‘zbek tili o‘qituvchisi, eng avvalo, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan komil bo‘lishi lozim. Faqat o‘zbek tili va adabiyotinigina chuqur bilib qolmasdan, tarix va zamon muammolarini mustaqil talqin va tahlil etish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyati va ularning uyg‘unligini teran tushunishi bilan keng dunyoqarashini namoyon qila olishi maqsadga muvofiq. Ravon va ifodali nutq esa o‘zbek tili o‘qituvchisi siymosining bosh belgisi ekanligi eski haqiqat. U o‘zining maftun etuvchi nutqi, muntazam madaniyati, to‘kis qiyofasi bilan o‘quvchilariga ibrat andozasi bo‘lmog‘i shart. Ta’limda ko‘rgazmali qurolga favqulodda muhim ahamiyat beriladi, o‘qituvchi esa asosiy tirik “ko‘rgazmali qurol”dir...

“Borligimiz va birligimiz ramzi”

Har qanday til ta’limining, ayniqsa, ona tili ta’limining pirovard maqsadi o‘quvchini tilday sinoatli olamga olib kirish, bu olamni uning o‘ziniki qildirish va unda hech bir mushkulotsiz, nafaqat mushkulotsiz, balki huzur va hayrat bilan erkin harakat qilmoq layoqatini tarkib toptirishdan, ana shunday malaka sohibini tarbiyalashdan iborat.

“Borligimiz va birligimiz ramzi”

Ona tilini bilish, ona tilida sobitlikning o‘ziyoq ta’kidlangan mo‘tabar tushunchalar uchun poydor poydevor ekanligi tabiiy. Ona tilida go‘zal va ravon nutq tuza bilish, bejirim va betakror,

rangin va zangin nutqdan huzurlanish va shunday madaniy nutq bilan boshqalarga ta'sir etish, yosh avlod qalbining qulfini ochib, mazkur tushunchalarni ularning o'ziniki qildirish, ayniqsa, o'qituvchi uchun birinchi darajali talablardandir.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

Xorijdan olinadigan yoki kirib keladigan yangi bilim, maqbul ko'ringan g'oya yoki umuman, fikr-natijalarga benihoya hassos va ziyrak yondashmoq, ularni hazm qilmoqdan oldin oqilona va xolis baholay bilmoq favqulodda muhimdir. Bu yangiliklar, ular qanchalik salmoqli va muhim bo'lmasin, bizning milliy tasavvurotimiz, milliy madaniyatimiz va azaliy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimiz muvozanatini tamoman izdan chiqarib yubormasligi lozim.

Til: ilm, ta'lim va targ'ib

Til madaniyati har bir insonda yoshligidan shakllanishi kerak deb o'ylayman. Avvalambor, bitta tilni mukammal o'rganib, uning mohiyatidagi mentallik, milliylik, estetik hamda emotsionallik xususiyatlarini tugal tasavvur etmoq lozim. Undan so'ng ikkinchi til o'rganilsa, nur ustiga nur bo'ladi. Zero, ona tili — millat birligi va birdamligining timsoli. U millat deb atalmish birlikni yagona xalq sifatida birlashtiradi, dunyoda borligini ta'min etadi.

“Davlat tiliga e'tibor, ehtirom va sadoqat”

Til insoniyat tarixida, xalq tamaddunida qanchalik bemisil ahamiyatga molik bo'lsa, uni o'rganish, uning sinoatlari bilan oshno bo'lish shunchalik favqulodda zaruriy yumushdir.

“Til va ta'lim muammolari”

*Kitobxonlik va nashr
madaniyati*



Jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida kitob deyiladigan tuganmas xazinaning o'rni favqulodda ulkan va muhtashamdir. Bashariyat tamadduni tarixining turli bosqichlarida sopol, tosh, po'stloq, teri va, nihoyat, qog'oz kabi turli ashyolarda tartib berilgan kitoblar insoniyatning ma'naviy-aqliy olamiga chiroq tutib kelganini yaxshi bilamiz. Kishilik jamiyati tarixan qo'lga kiritgan bilim-u tajribalar, inson zakosi yaratgan nodir kashfiyotlar, badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan so'z san'ati durdonalari, fozil-u fuzalo, aziz-u avliyolarning komillik, odillik, muslimlik eshiklarini ochishga undash yo'lidagi tabarruk kalomlari, jamiyatlar tarixi sahifalari va shu kabi axborotlar barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga kitoblar orqali yetib boradi.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Kitoblardagi ibrat yog'dulari bizning ko'nglimizga yorug' va muqaddas tushunchalarni olib kiradi, ularni qalbimizga muhrlaydi.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Badiiy so'zning maqsadi azaldan kitobxonni kamolot dunyosiga da'vat etishdan iborat bo'lgan. Shu bois adabiyotga chinakam xizmatni taqdir deb bilganlarni jamiyat ardoqlaydi, izzat-ikrom qiladi. Zotan, rost va raso so'zi bilan ijodkor jamiyatning ravnaq-u rivoji yo'lida mehnat qiladi, izlanadi, ayni paytda, badiiy so'z o'z ijodkorini ham, adabiyot muhibini ham ma'nan yuksaltiradi, boyitadi.

“Ijod va umr kamoloti”

Sharqda, xususan, bizning yurtimizda bosma soʻzga, kitobga ishonch-eʼtiqod, hurmat-eʼtibor azaldan muntazam va mustahkam boʻlganligi maʼlum. Tilimizdagi “kitobiy gap”, “kitobiy xulosa”, “risoladagiday” kabi iboralarda “toʻgʻri, haqqoniy, adolatli” kabi maʼnolar mujassam boʻlib, bu maʼnolar kitobga boʻlgan ayni shu ishonch-eʼtiqod natijasi sifatida barqarorlashgan. Hatto baʼzan u yoki bu fikrning toʻgʻriligi, biror ifodaning aniqligini jiddiy dalillash zaruriyati tugʻilganda, “kitobda shunday deyilgan”, “falon kitobda shunday yozilgan” degan asoslarga murojaat qilinishi ham bejiz emas, albatta. Kitobxonlarimizda ana shu ishonchning sobitligi, bardavomligi benihoya muhim. Bu tushunchalarning muallaqlashmasligi uchun kitobimizdagi fikr ham, ayniqsa, gapimiz ifodasi tiniq va tirik boʻlmogʻi shartdir. Ushbu talablarni uddalash muallifdan qanchalik mahorat-u masʼuliyatni talab etsa, noshirdan ham shunchalik javobgarlikni taqazo etadi.

“Soʻzimiz rost va raso boʻlsin”

Adib, shoir, jurnalist mahoratining ibtidosi tilni toʻgʻri va benuqson qoʻllay bilish malakasidan, ziyrak soʻz sezgisi va sevgisidan boshlanadi.

“Soʻzimiz rost va raso boʻlsin”

Har qanday nashrning yagona quroli soʻzdir, uning maqsad-manzilga yetib bormogʻi uchun, avvalo, oʻzi (soʻz) sogʻlom boʻlmogʻi lozim. Ayni soʻzi nochor boʻlgan nashr taʼsirsiz va hatto yaroqsiz bir narsaga aylanadi. Nashr betaʼsir boʻlsa, soʻz uvol, qogʻoz uvol, texnika uvol, mehnat uvol... Buning ustiga, kitob tilidagi, kattadir-kichikdir, noqislik

jamiyatda til didsizligiga yo‘l ochadi, kitobxonning nutq madaniyatini mo‘rtlashtiradi, uning tirik ona so‘z tuyg‘usini o‘tmaslashtiradi. Demakki, shaxsning ma‘naviy-ma‘rifiy dunyosiga daxl qiladi.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Kitobdagi so‘z rost va raso bo‘lishi, kitobxonni ishonitirishi, tuyg‘ulariga ta‘sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg‘ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qimmatini qolmaydi. Kitob badiiy bo‘ladimi, ilmiy bo‘ladimi, bundan qat’i nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo‘lmog‘i lozim.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Adabiyot so‘z san’ati ekanligi juda eski hikmat. Unda so‘z o‘zining bor badiiy sinoatlarini namoyon etmog‘i tamal talablardandir. Bizning adabiyotimizda bunday talablar tamoman ado etilgan badiiy durdonalar benihoya ko‘p. Ammo badiiylik degan tushunchani mulzam qiladigan, til noqisligi manaman deb turadigan, sifatsiz nutq namunasi desa ham bo‘laveradigan ba’zi asarlarning kitob shaklini olayotganligi taassuflanarli ekanligini aytmaslik mumkin emas.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Bosma nashrlar, katta-kichik kitoblar tilining rost va raso bo‘lishi, ularda ming yillik tilimizning to‘g‘riligi va tarovatini to‘liq aks ettirish uchun mualliflar ham, muharrirlar ham mas’uliyatni hamisha yodda tutmoqlari zarurdir.

“So‘zimiz rost va raso bo‘lsin”

Ulug' ajdodlarimizning tengsiz zakosi bilan yaratilgan aqliy va badiiy durdonalar nafaqat biz, avlodlarning, balki butun dunyo ahlining ma'naviy-ma'rifiy takomiliga chiroq tutib keladi. Bu durdonalar qatidagi benazir aql yombilarigina emas, ulardagi ifoda injaliklari ham har kimni hayratga soladi.

“Ona tilimiz kamoli”

Til asorati inson ma'naviy olamining mahdudligiga, tafakkur intizomining mo'rtligiga, taxayyul parvozinig tubanligiga yo'l ochadi. Shubhasizki, mahdud ma'naviyatli, mo'rt tafakkurli va tuban taxayyulli odamni yetovga olish, istagancha boshqarish oson bo'ladi, bunday odamni qayoqqa yetaklasa, o'sha yoqqa bosh egib ketaveradi. Tili bor kishilar ruhan, ma'nan bir xalq o'laroq birlashadi. Tili bor odam bolasi bani bashar silsilasida ko'z ochib, dunyoni ko'ribdiki, necha ming yillardir, o'zligini tanib, ozodlik istab yashaydi... Tilsiz, demakki, tafakkursiz maxluqninggina istiqloлга ehtiyoji yo'q.

“Ona tilimiz kamoli”

O'z ona tiliga hurmati bor odamgina boshqa tilga hurmat ko'zi bilan qaray biladi, uni sidqidildan o'rgana oladi. O'z ona tilini unutish evaziga o'rganiladigan til chin odam bolasiga foydadan ko'ra zarardir. Qolaversa, ona tilisiz insonning ma'naviy-ruhiy ildizlari sog'lom bo'lmaydi.

“Ona tilimiz kamoli”

Milliy-ma'naviy olamning ustuvor ustuni, bukilmas tayanchi ona tilidir. Ona tilini tamoman unutish shaxsning

etnomadaniy, milliy-ruhiy ildizlardan uzilishiga, inson ongi va sajiyasidagi milliy-madaniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishiga olib keladi.

“Ona tilimiz kamoli”

Til – millatning borligi, birligi va butunligidan iborat saodatining shahodati, u millat sarvatining buyuk va suyuk xazinasi, sir-u sinoatga limmo-lim tilsimidir. Chunki millat ibtidosidagi yo'rgakdan uning intihosidagi oppoq kafangacha bo'lgan fursatda shu timsolsiz tilsim ichida yashaydi, shu tilsim Odamni, olamni va Ollohni tanimoqday mashaqqatli va sharaflil yo'lning avval-oxir charog'boni ham shu tilsimdir. Shu tilsim vositasi bilan xalq o'zini ham, kerak bo'lsa, o'zgalarni ham madaniyat va ma'naviyatning muhtasham arshiga olib chiqadi, dunyo tamadduni mehvaridan munosib joy oladi. Har qanday xalqning tafakkur va taxayyul takomili tarixi ham, dunyoda o'zining kimligini anglash, qavmining hamiyati va hurligini ko'rish idroki ham shu tilsimga ko'ra mavjuddir.

“Mo'tabar tilimiz maqomining muntazamlashuvi”

Sharqda va'zning vazni va nufuzi faqat nutqning rasoligi bilangina emas, balki va'zxonning ma'naviy qiyofasi, shaxs sifatidagi komilligiga ko'ra ham baholangan. Har qanday va'zning, nutqning bosh maqsadi muayyan bir fikrni boshqalarga yetkazish, shu fikrni “yuqtirish”, unga ishontirishdan iboratligi tabiiy. Shunday ekan, o'zi ishonmagan narsaga o'zgalarni ishontirishga urinish, eng kami, o'zining ham, o'zgalarning ham vaqtini isrof qilish yoki masxarabozlikdan, o'zini sharmanda qilishdan boshqa bir ish emas.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

O'qituvchi uchun madaniy va raso nutq malakasiga monand tuzilgan nutq eng birlamchi qurol, bu qurolni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, o'qituvchi nechog'lik so'zga chechan, nutqiy mahorati yuksak bo'lmasin, agar o'quvchiga anglatishi lozim bo'lgan muayyan fikrni, aytaylik, Amir Temurning jahon tarixidagi muhtasham o'rni yoki Otabek xarakteridagi go'zal fazilatlarni teran idrok etib, unga ishonmasa va bu ishonch ham so'zda, ham butun qiyofatda namoyon bo'lmasa, o'qituvchining gapiga bola o'laqolsa ishonmaydi.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

O'qituvchi o'zi qadrlamagan qadriyatni, o'zi e'zozlamagan e'tiqodni, o'zi qilmagan ezgu amallar istagini o'quvchi shuurida barqaror qila olmaydi. Aksincha, bunday o'qituvchi soxtakorligi tufayli ana shunday go'zal tushunchalardan o'quvchining ixlosini qaytarishi mumkin.

Kirish / O'qituvchi nutqi madaniyati

Dunyoda turli-tuman kasblar, biri-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonning asosiy quroli ketmon, duradgorniki — tesha (arra, randa va sh.k.), jarrohniki — tig', tikuvchiniki — igna va hokazo. Dehqon ketmoni bilan taqir yerda betakror bog' barpo qiladi, go'zallik yaratadi yoki tajriba - mahorati yetarli bo'lmasa, yerning umriga zomin bo'ladi. Ketmon o'tkir bo'lmasa, dehqonning o'zi ketmon urish hadisini olmagan bo'lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga maymunlar yig'lashi aniq. Faoliyatining asosiy

quroli til bo'lgan kasblar ham borki, ularning boshida o'qituvchilik turadi.

***“O‘qituvchi nutqi madaniyati” kursining
mundariyasi, maqsadi va vazifalari / O‘qituvchi nutqi
madaniyati***

Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, so'zni ham, o'zni ham qiynamaydigan, ravon va ohorli ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, materialni bayon qilmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining raso madaniy nutqi o'quvchida havas va g'ayrat uyg'otishi, unga namuna bo'lishi, ayni paytda bu nutq materialni o'quvchi tomonidan oson o'zlashtirilishi uchun eng qulay vosita vazifasini bajarishi kerak.

***“O‘qituvchi nutqi madaniyati” kursining
mundariyasi, maqsadi va vazifalari / O‘qituvchi nutqi
madaniyati***

Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng muhim omil sifatida qo'llanib kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Ammo unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir.


***“O‘qituvchi nutqi madaniyati” kursining
mundariyasi, maqsadi va vazifalari / O‘qituvchi nutqi
madaniyati***

Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikning boshlarida, demakki, bundan besh ming yillar burun qadimgi Shumerda maktablar faoliyat ko'rsatgan va bu maktablarning ta'lim dasturlarida ikki asosiy tayanch mavjud edi. Ularning biri matematika, ikkinchisi esa ona tili hisoblangan. Ularning biri qorin qayg'usi ehtiyoji uchun, ikkinchisi – til ta'limi esa ruh, ya'ni qadr qayg'usi talabini qondirishga xizmat qilgan. Albatta, bugun ham shunday, maktabdir, oliy maktabdir, ona tili ta'limining bosh mo'ljali inson ruhiy, ma'naviy olami. Maqsad, avvalo, millat qiyofasi va ma'naviyatini salomat saqlashdan iborat. Maktab amaliyotida ona tili ta'limi ham, xorijiy til ta'limi ham favqulodda muhim ahamiyatga molik. Faqat ona tili ta'limida maqsad tildan tafakkurga qarab borish bo'lsa, noqarindosh til ta'limida ta'lim mantig'i tafakkurdan tilga olib boradi.

“Til va ta'lim muammolari”

YIL2836

*Ma'rifatning oydin
manzillari*



YIL2836

Ma'rifat sehr-u sinoatga to'la dunyoni insonning o'z ko'zi va o'z so'zi bilan idroq etmoq malakasidir. Tug'ilganidan umrining so'nggi daqiqalarigacha odam bolasini ayni shu malaka mukammallashtirib boradi.

Kirish / Ma'rifat manzillari

Ma'rifatning oliy manzillariga yetmoqning asosiy yo'li maktab orqali, milliy hamiyat orqali, ma'naviyatning o'zagi bo'lmish rostlik orqali, milliy o'zlik idroki, demakki, ona tili orqali bo'ladi.

Kirish / Ma'rifat manzillari

Chinakam ma'rifatga musharraf bo'lgan insongina millat qadrini minnatsiz boshiga ko'tara oladi.

“Zamonaviy qadr va milliy qadr” / Ma'rifat manzillari

Elning qadr-u qimmatini, erk-u hamiyatini, qadd-u bastini raso ko'rmoqday ulkan niyatni qalbiga jo qilib, har qanday vahshatlarga tik boqa bilgan ajdodlarimizning ma'rifat tug'ini sarbaland tutgan ibрати asrlar osha aks-sado berib turibdi. XX yuz yillik boshida millat xo'rligiga hurlik bilan barham bermoq uchun jon tikkan jadid bobolarimiz xalq ma'rifatini yuksaltirishni eng to'g'ri najot yo'li deb bilganlar.

Kirish / Ma'rifat manzillari

Ma'rifat bo'lmagan joyda nafaqat ma'naviyat, madaniyat, milliyat haqida, hatto to'kis iqtisodiyot to'g'risida gapirish so'zni isrof qilish bilan barobar. Yaponlarning “Avval miyani

to'ydirish kerak, qorinni to'q miyaning o'zi to'ydirib olaveradi” degan gapida juda katta mantiq bor.

Kirish / Ma'rifat manzillari

Insonni inson qilgan, uni taraqqiyot deb ataladigan uzluksiz va so'ngsiz jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirgan, uning ibtidoiy tasavvurini yuksak tafakkur darajasiga olib chiqqan narsa hazrati Insonda o'rganish va o'rgatish qobiliyatining mavjudligidir.

“Zamonaviy kadr va milliy qadr” / Ma'rifat manzillari

Har qanday jamiyat taraqqiyotining birlamchi, bosh omili muntazam ta'lim ekanligi bor gap. Muborak Hadisi sharifda “Beshikdan qabrgacha ilm izla” deb bejiz aytilmagan.

“Zamonaviy kadr va milliy qadr” / Ma'rifat manzillari

Ma'rifat jadallik bilan olg'a intilmoqning harakatlantiruvchi kuchidir.


“Zamonaviy kadr va milliy qadr” / Ma'rifat manzillari

Bolaga aniq fanlarni, zamonaviy kompyuterlarda ishlashni xorijiy davlatlarda yoki bu davlatlarning vakillari yordamida o'rgatish mumkindir, ammo ona yurtga muhabbat, ona zaminni tanish va e'zozlash, uning himoyasi uchun hamisha hozirlik hissini faqat va faqat shu yurtdagina, shu yurt fidoyilari kuchi bilangina shakllantirish lozimligini isbotlashning keragi yo'q.

“Ta'lim va muallim” / Ma'rifat manzillari

YIL2836

Fil va milliy nigoh



YIL2836

O‘z ona tilini mukammal bilgan, bu tildagi tafakkur tarzi turg‘unlashgan, bu til ohanglaridan uzun huzur tuya biladigan odamgina boshqa tilni qulay o‘rganishi va ayni paytda boshqa tilning va, demakki, begona madaniyat mentalitetning quliga aylanmaydi.

“Xalqaro til va ona tili” / Til tilsimi tadqiqi

Turg‘un o‘xshatishlar o‘zbek tilining tamomila o‘ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuroti va an‘analarining betakror ko‘zgusi, bejirim va ta’sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manba, avlodlar o‘rtasidagi juda katta etnopsixologik, lingvokulturologik va lingvopoetik qimmatga ega.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Har qanday es-hushli odam har qanday narsa-hodisaning qimmatini, kamida, manfiy-musbatligini farqlamog‘i, buni biron shaklda ifodalamog‘i lozim.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Bir narsa-hodisa boshqa bir narsa-hodisaga o‘xshatilar ekan (va, albatta, bu holat tilda turg‘unlik kasb etar ekan), bundan ko‘zlangan maqsad maxsus o‘xshashlikni qayd etishdangina iborat bo‘lmaydi. Shubhasiz, bundagi maqsad ana shu o‘xshashlik asosida so‘zlovchining mazkur obyektga subyektiv munosabatini ham ifodalashdan iborat bo‘ladi.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Til sir-u sinoatga limmo-lim, benihoya murakkab, mukammal va muhtasham bir xilqatdir. Bu zalvorli sifatlarining mag‘z-u mohiyati shundaki, mazkur xilqatning ichida o‘zining butun tilsimoti bilan odam yashaydi, xalq istiqomat qiladi va ayni paytda odam bolasi turtinib-surtinib topgan-tutganlarini unga iddaosiz joylab, yaxlit qavm o‘laroq butunlashib, tamaddunning baland-past pillapoyalaridan olg‘a intiladi. Gapning indallosini aytganda, xalqning tamoman o‘ziga xos sajiyasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, ruhiyati, tafakkur tarzi va taxayyul tamoyili, idrok intizomi kabi favqulodda muhim xususiyatlari bevosita ana shu xilqatda rost tajassumini topadi. Shugina emas, odam bolasi ana shu xilqatdan turib, uning temir nizomiga mutlaqo muvofiq holda tashqi dunyoni ko‘radi, eshitadi va idrok etadi.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Dunyoda til haqidagi ta‘limotlar taraqqiyotining turli davrlarida goh e‘tirof etilgan, goh rad qilingan yoki unutilgan (yoxud unuttirilgan) bu haqiqat o‘tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida, xususan, bugun deyarli barcha tilshunosliklarda haqqoniy tadqiqotlarning chinakam tamal toshiga aylandi. Antoropotsentrik tilshunoslik, soddaraq aytganda, markazida inson turadigan tilshunoslik mazkur haqiqatga asoslangan, shu haqiqat namoyon bo‘lishining ming bitta yo‘llarini ilmiy izlashga qaratilgan eng istiqbolli yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishning tarmoqlaridan biri lingvokulturologiya yoki lisoniy madaniyatshunoslik bo‘lib, u tilni “til – madaniyat – inson” uchligi doirasida o‘rganadi, bu fan bugun keng iste’molda bo‘lgan milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma’naviyat, milliy mentalitet, milliy

xarakter kabi juda ko‘plab tushunchalarning asosini til tashkil etishi, tilsiz ularning mohiyati barqaror bo‘la olmasligini ochib berishni asosiy maqsad deb biladi.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Xalqning tiynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayro holda tasavvur qilib ham, tadqiq etib ham bo‘lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so‘z, obrazli ibora-ifodalarda xalqning mental o‘ziga xosligi u yoki bu tarzda in’ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalar xalqning obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan.

“O‘xshatishlar va milliy nigoh” / Til tilsimi tadqiqi

Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi. Mazkur mashaqqat huzurining mag‘z-u mohiyati shundan iboratki, odamzod shu tariqa bilish deyiladigan tuganmas jarayonlarning natijasi o‘laroq kashf qila borgan unsurlarining yaxlit tizimi shaklidagi olam manzarasini yaratadi.

“Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” / Til tilsimi tadqiqi

Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg‘un, o‘zgarmas tuzilma emas, u tafakkur taraqqiyoti,

jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog'liq ravishda o'zgarib, mukammallashib borishi mumkin.

***“Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” /
Til tilsimi tadqiqi***

Ong jarayonlarini, tafakkur faoliyatini tilga tamoman aloqasiz hodisalar sifatida talqin qilish har qanday ilmiy mantiq muvozanatini ishdan chiqaradi.

***“Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” /
Til tilsimi tadqiqi***

Boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish o‘zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan tildagi olamning lisoniy manzarasidagi mavjud muvozanatni buzmaslikday maqbul maqsad bilan har qanday xorijiy o‘zlashmaga g‘ov qo‘yishga urinaverish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bu, ayniqsa, globallashuv asri atalmish bugungi shiddatli, makon-u masofani pisand etmaydigan zamonda nomumkin ishdir.

***“Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” /
Til tilsimi tadqiqi***

Ko‘pincha, tilni ko‘zguga mengzaydilar, go‘yoki til ko‘zgu kabi mavjud narsalarni qanday bo‘lsa, shundayligicha, hech bir o‘zgarishsiz, aynan aks ettiradi. Aslida esa to‘lig‘icha shunday emas, til dunyoni aks ettirar ekan, mutlaqo tabiiy ravishda unga o‘zidan ham nimalarnidir “qo‘shadi”, unga o‘ziga xos shamoyil va tartibot beradi.


***“Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” /
Til tilsimi tadqiqi***

Yer yuzidagi tillar orasida bironta ham mutlaqo sof til yo'q. Hamma zamonlarda bir tildan boshqasiga, ko'pdir-kamdir, so'z o'tib turgan, bir til boshqasiga u yoki bu darajada ta'sir qilgan.

***“So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik” /
Til tilsimi tadqiqi***

Insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o'z aksini topadi.

***“O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni” /
Til tilsimi tadqiqi***



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov X., **Mahmudov N.** Soʻz estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 60 b.
2. Mahmudov N. Soʻzni qayliq saylagandek sevib sayla // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 1984. 29-iyun.
3. Mahmudov N. Til va yozuv. Toshkent: Oʻzbekiston, 1987. – 24 b.
4. Nurmonov A., **Mahmudov N.** “Qalbimning bayrogʻidir soʻz” // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 1990. 23-mart.
5. Mirtojiev M., **Mahmudov N.** Til va madaniyat. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1992. – 110 b.
6. Mahmudov N. Shishaga yashiringan shovinizm // Xalq soʻzi. 1996. 12-mart.
7. Asqarova M., **Mahmudov N.** Soʻz-la soʻzlashmoq baxti // Xalq soʻzi. 1996. 12-iyul.
8. Mahmudov N. Oʻzimiz va soʻzimiz. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1997. – 112 b.
9. Mahmudov. N. Til va maʼnaviyat // Maʼrifat. 1997. 16-aprel.
10. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 37 b.
11. Mahmudov. N. Maʼrifat manzillari. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1999. – 64 b.
12. Mahmudov N. Borligimiz va birligimiz ramzi // Maʼrifat. 1999. 20-oktabr.
13. Mahmudov. N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati: Bakalavriat uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 188 b.
14. Mahmudov. N. Soʻzga sinchilik saodati // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 2007. 18-may.

15. Mahmudov. N. Nutqning jo'yaliligi // O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 3-son. – B. 13 – 17.

16. Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich. Biobibliografiya (Tuzuvchi F.Ro'ziyeva). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 72 b.

17. Mahmudov. N. Ijod va umr kamoloti // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2011-yil. 20-son.

18. Mahmudov N. So'z yarador bo'lsa, qo'shiq parvoz qilolmaydi // Kitob dunyosi. 2012. 4-avgust.

19. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 152 b.

20. Mahmudov. N. So'zimiz rost va raso bo'lsin // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2014-yil. 2-son.

21. Mahmudov. N. Ona tilimiz kamoli // Xalq so'zi. 2015, 21-oktabr.

22. Mahmudov. N. Til siyosati va siyosat tili // O'zbek tili va adabiyoti. – 2016. 4-son. – B. 16 – 29.

23. Mahmudov. N. O'zbek tili – xalq ruhining ko'zgusi // "Sog'lom avlod uchun" jurnali, 2016-yil. 9-son.

24. Mahmudov. N. Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. –178 b.

25. Mahmudov. N. Til va ta'lim muammolari // O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal. 2017-yil, 5-son. – B. 17–20.

26. Mahmudov. N. Matn va til taraqqiyoti // O'zbek tili va adabiyoti . – 2017. 4-son. – B. 3 – 13.

27. Mahmudov. N. Ovoz – fikr libosi // Tamaddun nuri. 2017. 3-son. – B. 42 – 44.

28. Mahmudov. N. O'zbekning bebaho boyligi // Hurriyat. 2018. 24-oktabr.

29. Mahmudov. N. Ilmiy matnda qoliplashgan ifodalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2019. 4-son. – B. 44 – 51.

30. Mahmudov. N. Ilmiy matnda shaxs, daraja va zamon // O'zbek tili va adabiyoti. 2019. 5-son. – B. 36 – 43.

31. Mahmudov. N. Til va jamiyat tanosibi sinoatlari// Yangi O'zbekiston. 178-son. 2020-yil. 17-sentabr.

32. Mahmudov. N. Mo'tabar tilimiz maqomining muntazamlashuvi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2020-yil. 30-oktabr.

33. Mahmudov N. Til: ilm, ta'lim va targ'ib // O'zbek tili va adabiyoti. – 2020. 4-son. – B. 3 – 10.

34. **Mahmudov N.**, Madvaliyev A., Mahkamov N., Andaniyozova D. O'zbek tili me'yorlari. Punktuatsiya. Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 235 b.

35. Mahmudov. N. So'z sandiqchasi: O'zbek tilining izohli lug'atchasi / tuzuvchi– Toshkent:. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. – 216 b.

36. Mahmudov N. Alifbo takomili – tilimiz kamolotining muhim omili // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2021. 26-mart.

37. Mahmudov N. Davlat tiliga e'tibor, ehtirom va sadoqat // Yangi O'zbekiston, 208-son. 2021. 20-oktabr.

38. Mahmudov N. Milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli // Xalq so'zi, 224-son. 2021. 21-oktabr.

39. Mahmudov. N. Til ilmi va ta'limining muntazamligi // Til va adabiyot ta'limi. 2021.10-son. – B. 7 – 10.

40. Mahmudov N. Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko'zgusi. // O'zbek tili va adabiyoti . 2021. 4-son. – B. 3 – 10.

MUNDARIJA

Nazarkarda olim. Tuzuvchilardan	3
Soʻzga soʻz berib. Erkin Aʼzam.....	8
Til – bemisl va muhtasham sinoat	11
Til siyosati va siyosat tili.....	27
Til taʼlimi oiladan boshlanadi	31
Soʻzga sinchilik saodati	39
Joʻyali nutq sirlari	45
Til va fazilat ilmi	53
Soʻz va sanʼat.....	61
Til va tafakkur	69
Til ilmi va idroki masalalari.....	73
Soʻz va badiiyat.....	89
Yozuv – tilning libosi.....	99
Til taʼlimi va muallim	103
Kitobxonlik va nashr madaniyati.....	109
Maʼrifatning oydin manzillari.....	119
Til va milliy nigoh.....	123
Foydalanilgan adabiyotlar.....	129

Qaydlar uchun

YIL2836

Qaydlar u

YIL2836

Nizomiddin Mahmudov

Zarif soʻz ziyorati

Toʻplam

Tuzuvchilar:

Maʼruffjon Yoʻldoshev, Dilrabo Andaniyozova

Toʻplam muallifning tahririda taqdim etilgan.

2041



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 10.10.2025.

“Liberation Serif” garniturası. Qogʻoz bichimi: 70x100 ¹/₃₂

Nashriyot bosma tabogʻi 3,5. Shartli bosma taboq 5,6.

Adadi 3000 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10